

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**TURIZM FAKULTETI**

**"TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI"**  
**KAFEDRASI**

**“Kuz ehsonlari misolida natyurmort ishlash (moybo`yoq).”**  
**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** Tasviriy san`at muxandislik grafikasi  
ta`lim yo`nalishi 3-1TS-15 guruhi bitiruvchi talabasi  
Salomova Vazira Anvarovna \_\_\_\_\_

**Ilmiy raxbar:** Tasviriy san`at va muhandislik  
grafikasi kafedrası katta o`qituvchisi  
Ramazonov Shuhrat Raximovich\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2019 yil

**BUXORO-2019 yil**

## **Mavzu: Kuz ehsonlari misolida natyurmort ishlash (moybo'yoq).**

### **Reja:**

#### **Kirish.**

#### **I BOB.**

- 1.1. Natyurmort tarixi
- 1.2. Rangtasvirda natyurmort va uni tasvirlash usullari
- 1.3. Rasm chizishda estetik tarbiyaning ba'zi masalalari
- 1.4. Tasviriy san'atning janrlari va turlari

#### **II BOB.**

- 2.1. Tasviriy san'at darsida o'quvchilarni rasm chizishga o'rgatish va tarbiyalash
- 2.2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishning roli
- 2.3. Natyurmort ishlash jarayonida akvarel bo'yoqlari  
imkoniyatlaridan foydalanish
- 2.4. Natyurmort mavzusiga oid dars ishlanmasi

#### **Xulosa.**

#### **Ilovalar.**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach dastlabki davrdanoq jahon taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan milliy ma'naviyatimiz asosida ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish bosh maqsad etib belgilandi. Ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy etibor yosh avlodni barkamol ma'nau va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilgan. Zero muhtaram Prezidentimiz I.Karimov 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan. Vazirlar Mahkamasining majlisida ma'ruzalarida biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlariga ega bo'lgan uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz degan fikrlar fikrimiz dalilidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tanlagan rivojlanish yoki ta'lim sohasini ham tubdan yangilash bo'yicha islohotlarning qonuniy asosini tashkil etuvchi hujjatlar "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash uchun yangi ta'lim standartlari o'quv reja va dasturlarni darsliklar zamonaviy didaktik ishlab chiqildi hamda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni tarbiyalashda "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" ni jahon miqyosida e'tirof etilishi ko'p jihatdan umumiy o'rta me'yoriga erishmoqda. Bu borada esa ko'p vazifalarni muvaffaqiyatlarni hal etilishi har tomonlama komil insonlarni tarbiyalash bizning vazifamizdir.

XX asr O'zbekiston Respublikasi hayotida ulkan o'zgarishlarning yuzaga kelishi shuningdek, tarixning yangi sahifalarini ochilishiga zamin yaratdi.

1991 yil mamlakatimiz sobiq sho'ro tarkibidan ajralib chiqib xalqimizning Mustaqildek ezgu orzu-niyatlari yuzaga chiqa boshladi. Ming yillik o'z tarixga

ega bo'lgan o'zbek xalqi Prezidenti I.Karimovning san'at harakati tufayli tez orada xo'jaligining barcha jabhalarida shiddat bilan ulkan yutuqlarni qo'lda kirita boshladi. Mamlakatimizda fan texnika va bir necha davlat ahamiyatiga molik sohalarida ulkan o'zgarishlarning tan olinishi bilan jahon manbalaridan o'rin egallay boshladi. Bu borada yuqoridagilar tarkibiga kiruvchi san'at alohida egallab badiiy adabiyot, musiqa singari tasviriy san'at sohasida ham ko'zga tashlanadigan yangiliklar o'zining muhimligi bilan jahon ahlini lol qoldirgan. Ayniqsa, me'morchilik sohasida ko'tarilgan muammolar poytaxt Toshkentni, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy obidalarga boy shaharlarga o'zgacha husn va libosda kiyingan inshootlarni qad ko'tarishiga zamin yaratildi. Tarixiy obidalar ta'mirlanib, yangi tipdagi zamonaviy inshootlar bunyod qilindi. Shu bois ham chet ellik sayyohlar to'xtovsiz bu shaharlarga kelib ketib, hayratdan yoqalarini ushlab qolish olganligi sir emas. Bizning boy tariximiz haqida hech vaqodan xabari yo'q, mehmonlar hayratlanib, taassurotlarga ega bo'lib ketmoqdalar. Ayniqsa, tasviriy san'at sohasida ulkan o'zgarishlarni doimiy sifatida etirof etish joiz. Tasviriy san'at tarkibiga kiruvchi grafika, rangtasvirda ko'p sonli iqtidorli musavvirlar yetishib chiqib, o'zlarining ijodiy ish namunalarida badiiy ko'rgazmalar uyushtirdilar. Badiiy ko'rgazmalar nafaqat O'zbekiston hududida, balki chet elning eng yirik va rivojlangan shaharlarida Parij, Berlin, Rim, Dehli va Osiyo mamlakatlarda katta obro'ga ega bo'lish bilan davom etayotgan rangtasvirda keksa avlod davomchilari yoshlar jonbozlik ko'rsatishyapti. Buning uchun asl sababi mamlakatimizda bir qator tanlovlarning tashkil etilishi asos bo'lib zaminida ko'plab iqtidorlar yetishib chiqdi. Ayniqsa 2000 yildan so'ng tasxiriy san'atda ham olamshumul yutuqlar qo'lga kiritilgan yangi. Har yil yakuniga qarab ko'p sonli tanlovlar, badiiy ko'rgazmalar soni oshib boryapti. Bu esa o'z navbatida respublika hayotida yangiliklarga yetaklovchi, yoshlarni esa komil inson bo'lib tarbiyalashida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadimiz jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalaridan biri o'zida ma'naviy boyliklarni, axloqiy poklik jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, san'at turlarining puxta biladigan komil insondan iborat.

Hozirgi kunda fan texnika rivojlanayotgan bir paytda milliy axborotlar nihoyatda ko'payib ketdi. Buning natijasida insonning ehtiyojlari kengaydi. San'atga bo'lgan qiziqishlari doirasi kengaydi. Darvoqe inson uchun ma'naviy ozuqa olish imkoniyatlari yaratildi. Bu borada bizlar yoshlarni barkamol inson bo'lib yetishishda san'atning turli imkoniyatlaridan imtiyozli foydalanishga harakat qilamiz.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarga badiiy ta'lim berishning puxta tizimi yaratilgani, yurtimizda ko'plab madaniyat va san'at koshonalari, ko'rgazma zallari, galereyalar, tasviriy san'atga ixtisoslashgan ta'lim dargohlarining barpo etilayotgani buning dalilidir. Ayni paytda yurtimizda milliy madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan turli madaniy-ma'rifiy loyihalar iste'dod sohiblarini aniqlash, ular ijodini respublika va xalqaro miqyosda targ'ib etish, madaniyat va san'at ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yangi ijodiy marralar sari rag'batlantirish kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu istiqlol yillarida sohada erishilgan yutuq va yangiliklardan dunyo xalqlarini boxabar qilish, milliy madaniyat va san'atimizni bor jozibasi bilan namoyon etish, uning qadimiy va zamonaviy badiiy an'analarga hamohangligi, betakrorligi va o'ziga xosligini xalqaro miqyosda e'tirof etilishida muhim omil bo'lmoqda. Tasviriy va amaliy san'at sohasidagi ijodkorlarni, yosh iste'dodlarni xalqimizning boy ma'naviy dunyosi, ozod va obod Vatan kelajagi oldidagi mas'uliyat, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini tarannum etuvchi yorqin asarlar yaratishga yo'naltiri.

## **I BOB.**

### **1.1. Natyurmort tarixi.**

Tasviriy san'at janrlaridan birining atamasi, ko'plarga yaxshi tanish bo'lgan "natyurmort" XVIII asrda paydo bo'lgan. Bu davrgacha esa jonsiz predmetlarni tasvirlovchi suratlarni asli gollandchadan chiqib kelgan nemischa so'z (ma'nosi : harakatsiz natura) bilan atab kelingan edi.

Janrning atamasi – natyurmort esa fransuz tilidan tarjima qilganda "jonsiz natura" degan ma'noni anglatadi. Unda uy – ro'zg'or buyumlari, gullar, mevalar, uy hayvonlari va parrandalar tasvirlanadi.

Natyurmort tasviriy san'atning odatiy narsalar dunyosi nafosati va go'zalligini tarannum etuvchi mustaqil janr bo'lib, janrli surat yoki portret kompozitsiyasining tarkibiy qismi bo'lishi ham mumkin. Masalan, ko'p rassomlar o'z asarlarining ma'no mundarijasini yanada to'liq ochib berish maqsadida natyurmortdan foydalanadilar, ba'zan esa natyurmortlar shu qadar muhim ahamiyat kasb etadiki, kompozitsiyaning o'ziga xos markaziga aylanib qoladi.

Natyurmort mustaqil janr sifatida o'z tarixi va an'alariga ega bo'lib, XVI asr bilan XVII asr chegarasida Flandriya va Gollandiyada yuzaga keldi. Natyurmort san'ati barq urib gullagan va tanazzulga uchragan davrlar ham bo'lgan, bunda yirik rang tasvirchi rassomlar katta ta'sir ko'rsatishgan.

Natyurmort XVI – XVII asrlar chegarasidagi golland san'atida juda keng tarqalgan va mashhur bo'lib ketgan edi, hozirda asarlari dunyodagi eng katta muzeylarni bezatib turgan P. Klass, G. Villem, A. Beyren, L. Feyt, F. Sneyders kabi rassomlar ijodida bu janr ayniqsa eng cho'qqiga ko'tarildi. Uning uch planli makon, ravshan ifodalanuvchi kompozitsion markazdan iborat badiiy prinsiplari ayni o'sha vaqtda ishlab chiqilgan ediki, ular natyurmortning bundan keyingi rivojlantirishini ko'p jihatdan aniqlab va belgilab berdi. Hayotni teran kuzatish, buyumlarning estetik qimmatini ilg'ay olish va tasvirlash mahorati bu rassomlarning asosiy xislatlari edi. Uyg'onish davri san'atining orombaxsh ta'siri ostida ijodi gullab – yashnagan rassomlar kundalik turmishda ishlatiladigan buyumlarni tanlaganlar, bunda butun vaziyatning uyg'un va nafis bo'lishiga intilgan holda ularni

juda e'tibor bilan tanlaganlar. O'zlari yoqtirgan "Nonushta" motivini idish – tovoq, meva – cheva, baliq, ilvasinlar yordamida tasvirlarkan, ular katta mahorat va ko'p qatlamli rang tasvirning nozik usullari bilan buyumlarning juda ishonarli chiqishiga erishganlar. Va , albatta rassomlarning o'z asarlariga katta mazmun bera olish, insonning uni o'rab turgan buyumlar dunyosi bilan aloqadorligini ochib berish qobiliyatlari golland natyurmortining jiddiy ijodiy xislati edi.

XVII asrda Rembrandt, Surbaran, Perda kabi atoqli rangtasvirchi rassomlar natyurmortlar chizib, ularda insonni o'rab olgan buyumlar dunyosi uyg'unligini, ular go'zalligini ko'rsatishga intildilar.

XVIII asrda yashagan fransuz rassomi, maishiy janrdagi suratlar ustasi J. B. Shurden natyurmortning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. San'at prinsiplarini rivojlantira borib u naturani o'tkir koloritli qilib tasvirlash bilan birgalikda natyurmortga alohida jo'shqinlik, ruhiy harorat olib kirdiki, bular uning ijodini belgilovchi xususiyatlar bo'lib qoldi. Rassomlardan E. Mone, P. Gogen, Sezann, Matiss asarlarini natyurmort janrining eng yaxshi namunalari qatoriga kiritish mumkin. Bu janrga rus rassomlari ham katta e'tibor berib keldilar. XVIII asrning dastlabki 30 – yili milliy – badiiy madaniyat jadal shakllangan davrda portret janri birga paydo bo'ldi. Bizgacha yetib kelgan dastlabki asarlar G. N. Teplov va boshqa rassomlarning asarlari tabiiy soddaligi va taqlidchiligi bilan ajralib turadi. XIX asrda natyurmortning rivojlanishiga I. F. Xrutskiy, A. M. Legashov, I. Mixaylovlar katta hissa qo'shdilar.

K. A. Korovin, I. E. Grabar, M. F. Larionov (o'z ijodining ilk davrida) rus natyurmortchilar edilar, agar ular safiga P. Konchalovskiy, I. Mshkov va A. Kuprinni qo'shsak, ular haqida Rossiya natyurmort maktabi asoschilari deb gapirsa bo'ladi.

Tasviriy san'atining tarkibiy va ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston natyurmorti ham o'z tarixiga, o'z rassomlariga ega. Sharqning badiiy madaniyatining rivoji rus rassomlari ijodi bilan tig'iz hamkorlikda yuz berdi.

Peterburg rassomlik akademiyasini bitirgan V. Vershchagin, N. Karazin, I. Kazakov, L. Bure, S. Yudin, R. Zommer, S. Duden, V. Rozvadovskiy, P. Nikiforov

kabi rus rassomlari samarali ijod qilgan edilar. Lekin ular o'z ijodlarida asosan etnografizmga o'rin ajratganlar, ammo ular yuzaga keltirgan muhit tasviriy san'at rivojlanishi uchun muhim omil bo'ldi. XX asr birinchi choragida A. Yusupov, A. Volkov, Petevosyan kabi rangtasvirchi rassomlar natyurmortga murojaat qila boshladilar. Rassomlarning keyingi avlodiga mansub Z. Kovalevskaya, V. Ufimsev, V. Rojdestvenskiy, N. Kashinalar ijodida realistic rangtasvir ana shu janrda aks etgan eng yaxshi an'analari o'z o'rnini topdi.

Natyurmort janriga bag'ishlangan respublika miqyosidagi maxsus badiiy ko'rgazma 1972 yildagina Toshkentda tashkil qilindi va 1973 yili Moskvada namoyish etildi. Ana shu ko'rgazmada E. Melnikov, Yu. Taldikin, R. Choriyev, Yu. Olizarov, R. Axmedov, Kovinin, V. Fadiyev, L. Roznikov, A. Lunev va ko'pgina boshqa rassomlarning asarlari e'tiborni o'ziga jalb etdi.

O'z ijodlarini ko'p jihatdan natyurmortga bag'ishlangan Kalibanov, Shevyakov, Arinin kabi rassomlarning ishlarini ham tilga olmasdan bo'lmaydi.

Bugungi kunda respublikamizning ko'pgina yetakchi rassomlari ham shu janrga murojaat qilishmoqda. Ularning natyurmortlari mazmuni va ijro etish texnikasi, buyumlar tanlash, kompozitsiya, kolorit jihatidan xilma – xildir. Har bir rassom o'zini o'rab turgan muhit haqidagi tasavvurini o'zicha, davr ruhiga monand ochib berishga, bu janrni xilma – xil qilish va talqin etishga, unga inson yashayotgan davr, vaqt, buyumlar dunyosini ochib berishga intiladi.

1986 yil sentabrda O'zbekiston rassomlar uyushmasining Markaziy ko'rgazma zalida ochilgan “O'zbekistonning natyurmorti va keramikasi” ko'rgazmasi tasviriy san'at mutaxassislari va ixlosmandlariga o'zbek rassomlari ijodida ana shu janr ahvoli o'z aksini topgan, natyurmort asarlari bilan tanishish imkoniyatini berdi. Ko'rgazmaga natyurmortchi rassomlarning eng yaxshi asarlari qo'yilgan edi. Xilma – xil badiiy vosita va usullar yordamida yaratilgan bu suratlar tomoshabinlarga hayotning eng rang – barang tomonlari haqida, insoniy munosabatlar va kishilarning tabiatga munosabati haqida hikoya qilib berdi.



X. Sanayevning “Natyurmort”, Lisovning “Xush kelibsiz !”, Mirjalilovning “Mehmon kutib” kabi asarlarida O‘zbekistonning an’anaviy mehmondo‘stligi haqida hikoya qilinadi.

Rassomlar ana shu kartinalarda insonning o‘zi ko‘rinmaydigan, jonsiz buyumlar tasviri vositasida insoniy munosabatlar harorati va ruhiy go‘zalligi haqida hikoya qila olganlar.

X. Sanayev “Natyurmort” asarida orqa plangan manzarani kiritgan, natijada o‘lkamiz tabiat ehsonlarini tasvirlovchi oddiy natyurmort to‘laqonli ohangga ega bo‘lgan.

M. Fatkullining “Oqshomgi natyurmort”, B. Toklinning “Dastlabki olcha” degan sof shaffof rangtasvirida bahorni, B. Toklinning “Natyurmort”, Ch. Bekmirzayevning “To‘kinlik” degan ranglar jo‘sh urgan rangtasvir polotnolarida saxovatli kuzni ko‘ramiz.

Zamonaviy natyurmort janri rassomlar asarlarida ko‘picha o‘ziga tasviriy san‘atning boshqa janrlarini ham qamrab, sintetik janr sifatida ko‘zga tashlansa – da, asosiy o‘rinni baribir natyurmort egallamoqda. J. Umarbekovning “Oydin natyurmort”, “Natyurmort – xotira”, B. Qurbonovning “Nishona”, F. Axmadaliyevning “O‘tgan urush aks sadosi” asarlarida manzara, natyurmort, tematik surat janrlarining murakkab qotishmasini ko‘ramiz, ularda rassomlar o‘zlarining “men”larini eng to‘laqonli va teran ifodalaydigan usulni izlaganlar, ularda buyumlar, tabiat inson hayoti bilan, uning tarixi, ruhiy holati bilan yaxlit tarzda qabul qilinadi. Rassomlar tasviriy san‘atning boshqa har qanday janri kabi natyurmortga ham o‘z ijodlarida doimo katta o‘rin berib kelganlar, u mamlakatimiz va chet ellardagi eng yirik muzeylar ekspozitsiyalarida haqli ravishda munosib o‘rin egallamoqda. O‘zbekiston rassomlari iste‘dod bilan yaratilgan yangi asarlar natyurmort janrini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

## **1.2. Rangtasvirda natyurmort va uni tasvirlash usullari.**

Natyurmort va uni ishlanish usullari haqida fikr yuritishdan oldin biz rangtasvir haqida aytib o'tsak. Albatta har bir tasviriy san'at soxasi bilan faoliyati bog'liq inson xoh u rassom bo'lsin, xoh tasviriy san'at fani o'qituvchisi yoki shu soha bilan bog'liq bo'lgan hunarmand barchasi birinchi o'rinda qalamtasvirni yaxshi bilgan holda rangtasvirga kirib boradi (rangtasvirga bog'liq sohalarda). Shu o'rinda rangtasvir o'zi nima-?, rangtasvirda qalam tasvirning o'rni qanday- degan savollarga javob berib o'tamiz. Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi talimot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lishi kerak. Ranglarni tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Batista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Rang inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil tasir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan «xira»-deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi malum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy sanatning juda ko'p turlari janrlarida rang ham, uni ishlata bilish ham juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi malum haqiqatlardan eng

asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvirda ishlashga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan malumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil,sariq,ko'k ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va ko'kni qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali esa zarg'aldoq, sariq va ko'kni qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyati: iliq va sovuq xususiyatlari bizga ma'lum. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg'aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek bular barchisi axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq , kulrang, qora, qoraroq, juda qora,va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir biridan rang tusi bilan farq qiladi, ya'ni – qizil, sariq, ko'k , yashil. jigarrang va hokazo.

Ranglar yana och-to'qligi ya'ni och qizil, to'q sariq. to'q qizil, och sariq va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan,yashil rang fonida qizil rang yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq , tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narslarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib,kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, o'quvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirda ishlashning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy etiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'inishi farqli ekanligini bilib

olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqazo etadi. Arxromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo'lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektorining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralashtiruvidan hosil bo'lgan hamma ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o'laroq, faqatgina yorug'lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, turlari jihatidan ham ajralib turadi. Masalan, sariq rang qizil ranglar ham yorug'lik kuchi bilan ham rangining tusi bilan ham keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga ega. Ular rang tusiga, rang yorug'ligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi), rang to'yinganligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi) ega bo'ladi. Har bir xromatik rang ana shu uchta xossaga ko'ra bir birdan farqlanadi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, xromatik ranglar bir biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o'zi), rangni och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektorni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu xosil bo'lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasida joylashtirib, spektor tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashil tab zangori havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil turlari ko'rinadi.

Ranglar doirsida rang tuslari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo'ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, ko'k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab –qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho'g'ni eslatasa, havorang, zangori, yashil ko'klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib, har qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyilishi mumkin. Kimyo fani bo'yoqlarning topilishiga, moddalarni kimyoviy usulda qo'shib, bo'yoqlarning retseplarini aniqlashga yordam beradi. Bo'yoqlar asosan ikki xil yo'l bilan tayyorlanadi. Bo'yoqlarning nomlari ko'pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, bo'yoqlardan neopolitan sarig'ini olsak, bu sarg'ish malla rang bo'yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofdagi tog'lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi – oltin tusli buyoq bo'lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog'ida olinadi. Hind sarig'i – to'q sariq bo'yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o'sadigan hurmo daraxti yaprog'idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo'yoqlarni kichkina jonivorlardan – dub daraxtida yashovchi ko'ng'izcha (kattaligi 2-8mm), Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Rang tusi ranglarning to'lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko'ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Rang tusining to'lqinlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda, faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va qaytarish koeffisenti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari sprektor ranglariga qanchalik yaqinlashsa,

ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo‘ladi . Rangtasvir va rang munosabatlari haqida quyida kengroq fikr bildirishga harakat qilamiz

### ***Rangtasvir texnikasini egallash.***

O‘quvchilar birinchi bosqichdanoq akvarel texnikasida ishlashni o‘qituvchi rahbarligida boshlang‘ich yarimyllik davridayoq o‘rganishni boshlaydilar. Kasb-hunar kollejlari va oliygoh talabalri o‘quv dasturlarida talabalardan rangshunoslikni ilmiy negizlarini egallashni, rangtasvirda ishlatiladigan ashyolarning xususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo‘llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun o‘quv dasturlari amaliy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtixonlar vaqtida esa amaliy vazifalar ko‘rigidan tashqari, og‘zaki so‘rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir nazariyasi va metodlarini o‘rganishda maqsad va vazifalarni oldinga qo‘yib, mukammal o‘rganib borish lozim. Talabalar auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim bo‘ladi.

Naturmortning qalamtasvirini bajarishda qo‘yiladigan talablar, narsalarning xajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo‘lsa, bo‘yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug‘-soya, tusi ham rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to‘qligini ko‘rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo‘ladi. Ya’ni bo‘yoqlar bilan tasvirlashda narsa-buyumlar o‘zining aniq ranggi bilan emas, balki atrofidagi boshqa turli ranglar bilan bog‘lanishda ko‘zga ko‘ringan ranggi ifodalanadi. Ko‘zimiz ko‘ra oladigan tabiatdagi barcha ranglarni



shartli ravishda ikkita axromatik va xromatik ranglarga bo‘linishi va ularga qaysi ranglar kirishini biz yuqorida aytib o‘tdik. Ranglarni tabiiyligini tasvirda bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo‘r mushoxada orqali erishish mumkin.

Natyurmortdagi narsalarning och-to‘qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o‘rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o‘tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo‘yoq bilan ishlash usuli **grizayl** deb ataladi. Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu usul bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o‘rgangandan so‘ng, barcha rang xillari bilan natyurmort rangtasvirini ishlashga o‘tish mumkin.

### **1.3.Rasm chizishda estetik tarbiyaning ba'zi masalalari.**

Tasviriy san'at, xususan, mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida estetik tarbiyani to'laqonli amalga oshirish uchun o'qituvchi uning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirib olishi lozim. Shuning uchun ham biz quyidagi estetik tarbiyaning nazariy masalalari xakida ma'lumot berib o'tishni lozim topdik. Yuqorida ta'kidlab utkanimizdek, estetik tarbiyaning muxim tarkibiy qismlaridan biri estetik idrok etishni shakllantirish va ustirishdir.

Estetik idrok etish bilish nazariyasi muxim o'rinni egallaydi. Idrok erkin, ixtiyoriy jarayondir. U shaxsning aktivligidan dalolat beradi. Idrok o'zida ijod elementlarini ham aks ettirishi mumkin. Idrok bir vaqtning uzida biror-bir xabarni qayta ishlash natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Idrokning mohiyati shundaki, u kishining mustaqil xarakteriga turtki beradi, bilan zining passiv emasligini ko'rsatadi.

Shuni xam qayd etib utish lozimki, dunyoda idrok etilmaydigan narsa yo'q. Ob'ektiv dunyodagi barcha narsa va xodisalar dialietik munosabatlarda ham go'zal, xam xunuk tarzda idroki idrok etish estetik zavqni keltirib chiqaradi.

Estetik zavq. U kishi ma'naviyatini, estetik qobiliyatini o'stiradi. Masalan, yashnab turgan gulzorni yoki huzurbaxsh shabada esib turgan kuklamzorni kurib kunglimiz zavq-shavqqa to'ladi, jonajon o'lkamiz chiroyini hayajon bilan kuzatamiz, bu bilan uni yaxshiroq bilib olamiz, Vatanimiz tabiati hakidagi tushunchamiz yanada yorqinlashadi. Bunday zavqlanish estetik idrok qilish qobiliyatimizda namoyon bo'ladi. Zavqlanish guzallikka bo'lgan didimizni shakllantiradi va o'stiradi. U bizni go'zallik qonunlari asosida mehnat qilishga undaydi. Estetik tuygu va did kishining borliqqa va o'zining shaxsiy faoliyatiga bo'lgan spestifik kechinmasidir. Bunday kechinma ma'naviy va bilish faoliyati bilan bogliqdir.

Did, xis-tuyguga qaraganda doimiyrok va chukurrok xodisa. Estetik didda zehn, ongli munosabat kuchliroq va aniqrok buladi. Estetik did o'zida borliqqa, kishilarga va turli xodisalarga bulgan munosabatni aks ettiradi. Estetik did kishi ma'naviyati bilan bog'lik. Shunday ekan, estetik didning darajasi u yoki bu



shaxsning ma'naviy boy yoki kashshokligidan dalolat beradi. Yaxshi rivojlangan estetik did guzallik va xunuklikni tugri idrok etish imkonini beradi.

Shunday kilib, estetik xissiyot, idrok etish, did bizning borlikka bulgan munosabatimizning buzilmas birligini tashkil etadi. Ana shu birlikning natijasi o'laroq, ogzaki va yozma shaklda ifodalanadigan mulohaza paydo bo'ladi.

Estetik mulohaza yuritish deganda narsa yoki xodisani va inkor etishni tushunamiz. Estetik mulohaza yuritish natijasida esa estetik baholash kelib chiqadi. Estetik baxolashda idrok etiladigan predmet va xodisalarga munosabatimiz aks etadi. Estetik baxolash ko'pincha idrokning, ayniqsa chuqur kechinmalarning bevosita natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq uni hayratlanish, ajablanish, maftun bo'lish, zavqlanish, g'amginlik, g'azab va boshqa shu kabi xis-tuygularda ifodalanuvchi qisqa vaqtli reakstiyalardan farqlay bilish kerak. Estetik baxolashga tushunib etishning natijasi deb qarash lozim. Biz ko'p eshitib turadigan, odatdagi «menga yoqadi» yoki «menga yoqmaydi» kabi so'zlar xam real bo'lmasa-da, baxolash hisobanadi.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiyaning biz yuqorida sharhlab o'tgan tarkibiy qismlarini bilish mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida estetik tarbiyani to'laqonli amalga oshirish imkonini beradi. Estetik tarbiya – yangi kishini shakllantirishning eng zarur sharti va muhim vositalaridan, binobarin, mamlakatimizdagi mafkuraviy ishning mas'uliyatli jabhalaridan biridir. Insonni estetik ruhida tarbiyalash, ularda yuksak badiiy did va madaniy ko'nikmalarni shakllantirish haqidagi g'amxo'rlik qilish eng muhim vazifalardandir. Estetika fani murakkab kategoriyalar tizimini ishlab chiqdi. Bular orasidan kishi idrok etadigan ob'ektlarning sifat jixatidan bir-biridan fark qiluvchi, estetik mazmunni aks ettiruvchi tutash va munosabatdosh ategoriyalar guruxini ajratish mumkin. Bu kategoriyalar – go'zallik, nafosat, fojivaviylik, hajviylik, xunuklik, pastkashlikdir.

### ***Tasviriy san'at darsidagi shart-sharoitlar.***

Kishi mexnat qiladigan ishlab chiqarishda muhitning roli katta. Muhit mehnat qilish va uning sifatini kutarishning muxim shartidir. Stexni jixozlash, maqsadga muvofiq tarzda bo'yash va uni tugri yorug'lantirish ishchilarning juda

kamaytiradi va ishlab chiqarish unumini nihoyatda oshirib yuboradi, deb yozadi L.Ladur.

O'quvchilarni ukishi uchun qulay sharoitlarning bo'lishi juda zarurdir. Kabinet sistemasida ham, kabinet bo'lmagan taqdirda ham birinchi sharoit bu keng va yorug sinfdir. Yop-yorug sinfdan ko'z kam toliqadi, bolalarning aktivligi sezilarli darajada oshadi. Sinfdan tabiiy yoruglik bo'lishiga erishish lozim. Sun'iy yoruglikda ranglar o'z tusini o'zgartiradi, bu esa o'quvchilarning rang haqidagi tasavvurlarini chalgitib yuboradi. Shuningdek, sinfga quyosh nurining tushmasligiga xarakat qilish lozim. Buning uchun sinf derazalarini oq parda bilan berkitish kerak bo'ladi. Sinfnı yoruglantirish bilan bir qatorda uning rangini ham hisobga olish kerak. Sinfga tushayotgan yoruglikni kuchaytirish yoki susaytirish mumkin va bu bolalarga kuchli, emostional ta'sir etadi.

O'quvchilarning estetik tarbiyasida yana bir muxim masala darsni kerakli jixozlar bilan ta'minlashdir, rasm daftari, oddiy kora kalam, muykalam, uchirgich, akvarel, guash buyok, suv uchun idish, buyoq korish uchun palitra yoki idish, iflos va toza suv uchun chelaklar va xokazo. Bu jixozlarning fakat mavjud bo'lishi ham hali etarli emas. Ular ayni paytda estetik talablarga javob Bera olishlari, ya'ni tashki jixatdan chiroyli bo'lmogi, bolalarga emostional ta'sir ko'rsatmogi kerak. Ishning samarali bulishida rasmning kuyish uchun planshet bo'lishi lozim. Bunday planshet qanday materialdan yasalganidan qatt'iy nazar tekis bulishi kerak. Shuningdek, akvarel bilan ishlanganda qogozdagi bo'yoqning pastga oqib tushishi uchun unga moslama yasash kerak bo'ladi.

Darsni maqsadga muvofiq o'tkazish uchun o'quvchilarga muljallangan o'quv qurollari sinf shkafida bo'lishi lozim. Shu bilan birga uyda ishlash uchun o'quv qurollari bolalarning o'zlarida bo'lishi kerak. Chunki sinfdan o'quv qurollaridan birontasini uyda qoldirgan yoki yo'qotganligi sababli olib kelmagan o'quvchilar ko'plab uchrab turadi.

Dars samaradorligini oshirish va bolalarga estetik tarbiya berishda darsni kerakli o'quv qurollari bilan jixozlashning o'zi kifoya qilmaydi, bolalarni mana shu o'quv qurollariga qanday munosabatda bulishga xam o'rgatmoq lozim. Ishni

shunday tashkil etish kerakki, partada fakat darsga taaluqli narsalar tursin. Kishi ish joyini ozoda, tartibli tutgandagina, o'z mehnatini hurmat qilgan bo'ladi, degan fikrni bolalarga singdirish zarur.

Yuqorida qayd qilingshandek, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash, xususan, estetik tarbiyalashning muvaffaqiyati darslarni to'g'ri tashkil qilish va samarali utkazishga bog'lik.

To'g'ri tashkil etilgan xar bir dars quyidagicha o'tkaziladi.

Tashkiliy qism. Tashkiliy qism sinfda tartib o'rnatish, darsga qatnashuvchi o'quvchilarni hisobga olish, bolalarning ish joyini va darsga tayyorgarligini tekshirish, o'qituvchi, tomonidan dars uchun zarur bo'lgan hamma o'quv qurollarini tayyorlab qo'yish ishlarini uz ichiga oladi. o'qituvchi darsga tayyorgarlikni, asosan, tanaffus vaqtida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Tayyorgarlikni o'qituvchi fakat navbatchilarga topshirib qo'ya qolmasdan, uni bolalar bilan birgalikda bajarilishi ularning darsda aktivligini oshirishga yordam beradi. Tanaffus vaktida sinfga ukuv kurollari saklanadigan xonadan zarur kurgazmalar keltirib quyiladi. Uni doskaga shunday osish kerakki, u sinfdagi hamma o'quvchilarga aniq va ravshan ko'rinib tursin.

Uyga berilgan vazifani tekshirish. Tekshirganda ishdagi tipik xatolarni bolalarga ko'rsatib, ularni tugrilash yullarini tushuntirib berish kerak bo'ladi. Uy vazifasini tekshirish uchun xamma o'quvchilar uz ishlarini partaga yoygan holda quyadilar, o'qituvchi esa partalararo yurib, hamma ishni ko'rib chiqadi. Yaxshi va bo'sh ishlardan taxlil uchun ajratib oladi. Bu ishlarning xar birini aloxida-aloxida taxlil kiladi. Taxlilda ukuvchilar aktiv ishtirok etishlari lozim. Uy ishlariga quyilagan baxolar sinf jurnaliga yoziladi.

Yangi materialni bayon etish. O'qituvchi yangi mavzuning maqsadi va vazifalarini bayon etadi. Keyingi bosqichda o'qituvchi vazifani qanday bajarish haqida to'htalib, turli kurgazmali kurollarni namoyish etadi. o'quvchilarning mustakil ishlari o'qituvchi vazifani atroflicha tushuntirib bulganidan sung boshlanadi. O'qituvchi bolalar ishlarini kuzatib boradi, ularga maslaxatlar beradi, Ba'zilariga esa qayta tushuntiradi, ba'zan rasm chizishda qiynalayotgan bolaning

rasmini uzi tuzatib ko'rsatadi. Gullar asosida rasm chizish mashgulotlarida rasm chizishdagi ketma-ketlikni quyidagi bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- a) o'qituvchi tavsiya etgan mavzu yuzasidan tevarak-atrofni, kurgazmali qurollarni, illyustrativ rasm chizish uchun turli xil gullarni kuzatish;
- b) Gullarning rasmlarini xomaki chizib urganish;
- v) o'qituvchi tavsiya etgan mavzuga syujet tanlash;
- g) rasmni daftarga tugri joylashtirish;
- d) rasmni qalamda kompozistiya qoidalariga rioya qilgan xolda chizib tugallash;
- e) rasmni buyoq bilan ishlash.

Tasviriy san'at darslarida yangi materialni mustaxkamlash uchun bir necha rasmlarni ajratib olish va taxlil qilish metodidan foydalanadi. Bunday ishlar ukuvchilar ishtirokida va ular sinf jurnaliga yoziladi. Qonikarsiz bajarilgan ishlardagi xatolar kursatiladi, bu xatolarni tuzatish yullari tushuntiriladi.

Uy vazifasi yangi o'tiladigan material yoki kelgusi dars mavzusi yuzasidan bulishi mumkin. Yangi mavzu bilan bogliq bo'lgan uy vazifasi sinfda olingan bilimni mustaxkamlash yoki chala qolgan ishni tugallashdan iborat buladi. Kelgusi dars bilan boglik bulgan uy vazifalari esa tabiatni, hayvon va qushlarni, bino va ko'chalarni kuzatish, reprodukstiylar tuplash kabi ishlarni uz ichiga oladi. Shuni xam aytib utish lozimki, mazkur dars biz tavsiya etgan tartibda bo'lishi shart emas. Uning mazmuni ukuvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvchining tashabbuskorligiga bogliq bo'ladi. Mavzu asosida rasm chizish darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning eng muxim omillaridan biri tasviriy faoliyat uchun kizikarli, mazmunli mavzu tanlashdir. Shuningdek, bu mavzularning mazmuni xayotiy va bolalarga yaxshi tanish bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni tasviriy faoliyatga bo'lgan kizikishini, dars samara dorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xozirgi vaktida maktablarning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni ustirishdan iborat ekan, mavzu asosida rasm chizish mashgulotlarning

tasviriy san'at kursidagi rolini va bunday mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yullarini izlab topish lozim buladi. Ijodiy qobiliyatning usishi bolalardagi badiiy didni rivojlantirishga xizmat kiladi.

Rasmda obraz yaratish fakat estetik idrok va xis-tuygularni rivojlantirish uchungina zarur bulib kolmay balki bolalarda avvallari kurgan, u bilan munosabatda bulgan predmet va xodisalar xakida anik xamda tulik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Hosil kilingan tasavvurning sifati predmet va xodisalarning kandy idrok qilinganligi boglik buladi.

Bolalarda aniq va to'liq tushunchalarni tasavvur orqali qayta ishlash qobiliyatni o'stirish estetik tarbiyaning vazifalaridan biridir. O'qituvchi bolalarga rasm chizish uchun shunday mavzuni tavsiya etsinki, u ularni uylashga, fikr yuritishga undasin, to'lqinlantirsin, xayajonlantirsin, bu mavzuni iloji boricha kuchliroq ifodalash xoxishi paydo bo'lsin.

Tasviriy faoliyat orqali amalga oshiriladigan tarbiyaning asosiy vazifasi ma'lum mazmunini ifodali obrazlar orkali tasvirlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Rasm mazmuniga bo'lgan qizikish uning yanada mazmunli bo'lishiga olib keladi. Bolalar uz rasmlarining boshqalarga yokishidan zavqlanadilar. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning bu xususiyatlarini xam xisobga olishi kerak buladi. Shunday kilib, tasviriy faoliyat orkali amalga oshiriladigan tarbiyaning vazifasi narsalarni estetik idrok etish, ularning tashki kurinishi va xususiyatlari hakida tushunchalarni shakllantirish, to'plangan tajriba asosida fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

O'quvchilarning badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda kompozistiya va komponovka haqida beriladigan ko'rsatmalarning ahamiyati katta. Masalan, «Bahorgi ishlar» mavzusini utishda o'qituvchi bolalarga rasmni qanday chizish, uning kompozistiyasi haqida gapirib beradi. O'quvchilarning badiiy ijodini yanada aktivlashtirish maqsadida boshqa sinf o'quvchilarining shu mavzuda chizgan rasmlaridan namunar ko'rsatish yaxshi natija beradi. Rasmlardan namuna ko'rsatish bilan bir katorida ularni keng taxlil qilish rasm mazmunini o'quvchilar ongiga

etkazish lozim bo'ladi. Bolalarda tasvirlash malakalarini rivojlantirmay turib ularning badiiy didini, badiiy-ijodiy qobiliyatlarini ustirib bulmaydi. Psixolog V,A,Artemov ta'kidlab utganidek, «texnik malaka ijodiyotni paydo kilish va kamol toptirish shartdir». O'qituvchi bolalarning kompozistiya haqidagi bilimlarini yanada kengaytirish maqsadida o'zi tayyorlagan rasmlardan kursatish va ularni bolalar bilan birgalikda savol-javob yordamida taxlil kilishi yaxshi natijalar beradi.

Rasm chizish mashg'ulotlarida bolalarni kompozistiya haqida dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtirishda andaza metodidan foydalanishning roli katta, o'qitishning bu metodida rasmda tasvirlanadigan narsalar shakllarining andazasi tayyorlanadi. Masalan, «Kishlogimiz yuli» mavzusida rasm chizdiri uchun uy, daraxtlar, gul, yul, bolalar shakllarining andazasi tayyorlanadi. So'ngra kompozistiya tuzish uchun kattaroq o'lchovdagi toza oq qogoz doskaga yopishtirilib, gul, daraxt, meva va boshka shakllaridan kompozistiya tuzib kursatiladi.

Bolalarning ijodiy aktivligini oshirish maksadida ularga boshkacha kompozistiya tuzishni taklif kilish xam mumkin. Andaza metodining boshka yullaridan foydalanish xam yaxshi natija beradi. Shulardan biri tayyor rasmga (kompozistiyaga) rangli qog'oz parchalarini yopishtirishdan iboratdir. Bu ko'proq mozayika usuliga yaqin turadi.

#### 1.4. Tasviriy san'atning janrlari

Tasviriy san'atda manzara, maishiy, natyurmort, polrtret, tarixiy animal, (ya'ni xayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengiznavislik, nyu, interer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga karab belgilanadi. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa, ular «Portret», tabiat va shaxar kurinishlari tasvirlansa, «Manzara», turmush va mexnat jarayonlari tasvirlansa «Mashina» janrga xos buladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janr, xayvonlarni tasvirlash animal janr deb yuritiladi. «animal» janri lotincha «anima» suzidan kelib chikkan bulib xayvon ma'nosini anglatadi. «Batal» janri esa franstuzcha «Batay» suzidan kelib chikkan bulib, jang «nyu» janri franstuzcha yalangoch ma'nosidagi suzdan kelib chikkandir. Arim masalalar bir paytning uzida ikki va undan ortik janrlarga mansub bulishi mumkin. Masalan, portret va nyu, dengiznavislik, ienterer, manzara va xokazolar.

Xar bir janr uz urnida yana bir kancha janrlarga bulinishi mumkin. Masalan, manzara janrini tabiat manzarasii, shaxar manzarasi janri, industrial-sanoat binolari kurinishi manzarasi janriga yoki portret janrini tantanvorlik, ishkiy, guruxli janrlarga bulish mumkin.

Manzara janri. Tasviriy san'atda tabiat, shaxar industrial-sanoat, interer kurinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taalluklidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning xakikiy, ya'ni xayotiy kurinishini tasvirlasa, boshkalarida borlik ijodiy tarzda, xayolan ifodalanayotgan buladi. Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustakil manzara bulib, unda fakat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orka tomonida tabiat yoki shaxar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrining aloxida shakllaridan biri bu interer xisoblanadi. Interer binolarning ichki kismi kurinishlarini ifodalaydi. Bu janr kadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida kup uchraydi. Kadimgi misrliklar va xitoyliklar uz ishlarida intererni akl bovar kilmaydigan darajada aniklik ilan perspektiva konunlari asosida

tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod kilib Jatto, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrantlar shuxrat kozonganlar.Manzara janrining ikkinchi bir kurinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz kurinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bulgan. Bu ulug rassom uzining umrini fakat dengiz kurinishlarini tasvirlashga bagishladi. Uning «Tukkizinchi val», «Chesmen jangi», «Kora dengiz», «Tulkinlar orasida» kabi asarlari jaxon tasviriy san’atida munosib urinni egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshka janrlarga xos elementlar xam ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va xokazolar.

Natyurmort janri. «Natyurmort» suzi franstuzcha bulib «jonsiz narsalar (natura)» ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, kushlar, baliklar, ozik-ovkatlar, turli predmetlar aks ettiriladi. Nartyurmort mustakil janr sifatida XV-XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bulgan.

Natyurmortning ikki xili mavjud. Birinchisi mustakil ravishdagi natyurmort bulsa, ikkinchi yordamchi yoki tuldiruvchi natyurmortdir. Nartyurmortning birinchi turida fakat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turida natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda kushimcha detal sifatida ishlangan buladi.

Natyurmortning xarakterli xususiyati – uning xayotdan, guzallikdan zavklanishga yunaltilganligidandir. Bu vazifani rassom gullar, meva-sabzavotlar, ozik-ovkatlarni turli kurinish va ranglarda ifodalab,kishilarning xis-xayajonini uygotish orkali bajaradi. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil ta’sirini kayd kilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni guzallikka oshno etib, ularni xayotdan zavklanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va ozik-ovkatlar tasviridan tashkil topgshan bulsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaxa baxsh etadi.

Ikkinchisida natyurmort uzi xakida emas, balki u bilan boglik shaxs uning egasi xakida ma’lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, birok uning didi, ijtimoiy mavkei ifodalanadi. Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit xolda ifodalanishi xam mumkin.Bu janrlarda ijod kilgan rassomlardan J.Sharden,



F.Snayders, I.Mashkov, P.Kanchalovskiy, L.Salamjonovalar katta shuxrat kozonganlar.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mexnati, kundalik xayoti bilan boglik bulib, ularda kuprok oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy xayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafakat xozirgi kun odamlarining balki utmishdagi kishilarning turmush tarzi va xayoti xakida xam keng ma'lumot beradi.

Tasviriy san'atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bulgan. Bu janr uz mazmuni jixatdan ancha murakkab bulib, natyurmort, manzara, animal va boshka janrlar Bilan boglik tarzda yaratiladi. Maishiy janr kuprok rangtasvirda, ba'zan esa grafika va xaykaltaroshlikda xam ishlatiladi.

Maishiy janrda ijod kilgan rassomlar tarixda nixoyatda kup bulib, ulardan eng mashxurlari sifatida turli zamon va makon yashab ijod etgan Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inogomov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kent va boshkalarni tilga olib utish mumkin.

Portret janri. «Portret» franstuzcha «portrait» suzidan olingan bulib, kishilarning chexrasini xudi uziga uxshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretda kishilar yakka, ikki kishi yoki bir gurux sifatida tasvirlanishi mumkin. Portretda odamlarning fakat boshi, ba'zan ular beligacha yoki buyi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san'atning uchala turida xam kullaniyadi. Portret uz xarakteri jixatdan monumental, miniatyurali, dastgoxli, ishkiy, xajviy buladi.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili xam keng tarkalgan. Avtoportretni rassom oynadagi uz aksiga karab yaratadi. Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsning fotosidan, shuningdek, arxiv materiali yoki adabiy tasviridan, ba'zan xatto vafot etgan marxumning bosh chanogini urganish asosida xam yaratiladi.

Portretchi asarning uz kaxramoni tashki kiyofasiga uxshash bulishiga erishishdan tashkari uning millati, kasbi, tabakasini xam ifodalashga xarakat kiladi. Shuningdek, portretda shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ma'naviy dunyosi xam tasvirlanishi kerak. Bu janrda Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi,

Mikelandjelo, XVIII-XIX asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XX asr uzbek rassomlaridan A.Abdullaev, Ch.Axmarov, V.Kaydalov kabilar samarali ijod kildilar.

Tarixiy janr. Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muxim vokealar va kaxramonlar xayoti tasvirlanadi. Rassom birona tarixiy vokealar kurinishini tasvirlash uchun avvalo usha vokeaning boshka tarixiy vokealar orasidagi urni va muximligini anglab etishi kerak bulgan. Sungra u usha vokea sodir bulgan davr xakidagi abadiy manbalarni, tarixiy me'morchilik obidalari xamda u erdan topilgan arxeologik topilmalarni urganadi, ular asosida koralama va ranglamalar yaratadi. Mavzuga alokador tarixchilar bilan suxbatlashish vokea mazmuni xamda yaratiladigan asar detallarini aniklashtirishga yordam beradi.

Batal janri. Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush jarayonlarini zavk-shakv, kutarinkilik, kaxramonlik kabi tuygular bilan ifodalashga xarakat kiladilar. Bunday asarlarda kuprok vatanparvarlik goyalari ilgari suriladi. Ularda nafakat jang kurinishlari, balki xarbiylarning jangdan tashkari vaktdagi turmushi xam ifodalanishi mumkin. Jang manzaralarini tasvirlash kadimdan ma'lum bulsa-da, uning san'atda ifodalanishi Sharkda XV-XVI asrlarda keng tarkalgan. Ayniksa, u shark miniatyura rangtasvirida aloxida urinni egallaydi. Mazkur janr XV-XVIII asrlarda Evropa rangtasvirida xam rivoj topdi.

Tarixiy va batal janrlarda samarali ijod kilgan rassomlar katoriga Kamoliddin Bexzod, Maxmud Muzaxxib, D.Velaskes, K.Bryullov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Goyya, V.Surikov, A.Deyneyka, M.Nabiev, R.Choriev kabilarni kiritish mumkin.

Animal janr. Animal lotincha «anima» suzidan kelib chikkan bulib, «jonlantirish» demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Xayvon va kushlarning rasmini ishlovchi rassomlarni animalistik rassomlar deb yuritishadi. Bunday rassomlarning tabiatga, uning ajralmas kismi bulgan xayvonot olamiga muxabbati kuchli buladi. Animal janr tasviriy san'atning mustakil janri bulsa-da, xayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida xam aks etishi mumkin. Xayvonlarni tasvirlashga kadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar kuplab iloxlarini turli xayvon kiyofasida tasvvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli xayvon va kushlar kurinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan

xaykallarning tanasi odam, boshi biror yirtkich xayvon yoki kush kurinishida bulgan.Uzbekistonda xayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrosiyob freska va xaykallarida (fil, ot, tuya, kushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligini guvoni bulamiz.

Shark miniatyura rangtasviri asarlarida xam xayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, Sher, koplun, kushlar kup tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning «tuyalar jangi» asari Rizo Abbosiyning «Chupon» miniatyurasi xam fikrimizning dalilidir. XV-XVI asr Evropada Uygonish davri rangtasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinchi, A.Dyurerlar xayvonlar tasvirini anik, realistik tarzda ifodalashga xarakat kilganlar.XVII asrga kelib Gollandiyada xayvonlarni tasvirlash aloxida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va xaykaltaroshlardan P.Klodt, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnestovlar xam ijod kilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

Afsonaviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida xayotda uchramaydigan, biroq xalk tomonidan xayolan uylab topilgan odam va xayvonlar, baliklar, vokea xamda xodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan kanotli farishtalar, xuru gilomonlar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot «kentavrlar», yarmi ayol yarmi balik suv parilari, yarmi ayol, yarmi kush jonzotlar, bir kuzli baxaybat kuzli devlar va xokazolar tasvirlanadi.Afsonaviy janr tasviriy san'atning xamma turlari (rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika)da keng kullanadi. Afsonaviy janrda ijod kilgan rassom katoriga Rafael Santi, shark miniatyurachi rassomi Sulton Muxammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnestovlarni kiritish mumkin.

Dengiznavislik janri (Marinizm). Marina franstuzcha suz bulib, dengiz kurinishi ma'nosini bildiradi. Marinizm – yangi dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Evropa san'atida aloxida egallaydi. Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Persellis, S.de Vlioger, X.Sigers va boshkalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan boglik balikchilar xayotini xakkoniy aks ettirshda samarali ijod kildilar. Keyingi oyna janrida K.Verne, U.Terner, X.Mesdag, I.Ayvazovskiy kabi rassomlar yuksak badiiy saviyadagi asarlar

yaratdilar. Ushbu janrda uzbekistonlik muykalam ustalaridan F.Madgazin, U.Tansikboev, A.Muminovlar xam barakali ijod kilishgan.

Dengiz kurinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy janrdagi suvratlarning orka plandagi xam tasvirlanishi mumkin.

Nyu janri. «Nyu» suzi franstuz tilidan olingan bulib, yalangoch degan ma'noni anglatadi. «Nyu» portret janridan ajralib chikib, mustakil axamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar ko'pincha yalangoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni kursatmoqchi bo'ladi. «nyu» portret janri kabi yakka yoki ko'p figurali bo'lishi mumkin. U tasviriy san'atning barcha turlari (rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika)da keng qullaniladi.

Interer janri. Bu janrda binolarning ichki ko'rinishi, foe, yo'lak, xonalarning uziga xos jihatlari, ulardagi jihozlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi.

### **Tasviriy san'atning turlari**

Tasviriy san'atning uch turi mavjud:

1. Rangtasvir. 2. Xaykaltaroshlik. 3. Grafika

**Rangtasvir** deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur asosan buyoqlar – moyli buyoq akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalam, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qogoz, mato, karton, devor, oyna, yogoch kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Xar kanday rangtasvir ishida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozistiya, nur va soya, rang asosiy urinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jixatdan turli-tuman bulib, ular moybuyoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvareli, guashli, pasteli bo'lishi mumkin.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgoxli rangtasvir. 2. Monumental (maxobatli) rangtasvir. 3. Miniatyura (mu'jaz) rangtasviri. 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri.

**Dastgoxli rangtasvir** deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgox (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgoxli rangtasvir asarlari uncha kata bo'lmagan ulchovdagi yukorida kayd kilib utilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgoxli rangtasvirida ko'pincha moyli va akvarel buyoqlar qo'llaniladi.

**Monumental rangtasvir** atamasi monumental (maxobatli), ya'ni kata ulchovdagi rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar kupincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera buyoklari bilan ishlanadi.

**Miniatyura** (mu'jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlarini tushuniladi. Miniatyura rangtasviri urta asrlarda kitob bezagi bilan boglik xolda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal harf, illyustratsiyalardan iborat bulgan. **Dekorativ rangtasvir** asarlari mustakil amaliy axamiyatga ega bulib, u binolarning ichki va tashqi devorlarini bezatishda keng kullaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, kuticha, patnis, sandik, shkaflarni bezatishda kul keladi. Bino ichini bezatishga xizmat kiladigan nakshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar xam dekorativ rangtasvirga kiradi.

**Teatr dekorativ rangtasviri** spektakl dekoratsiyalari, unda ishlanadigan grim, saxna jixozlari bilan boglik. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurrok singdirishga yordam beradi. Bu bezaklar rassomlar saxnaning yoritilishi va ranglarga aloxida e'tibor karatadilar. Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida **akademik rangtasvir** iborasi xam ishlatiladi. **Akademik rangtasvir** asosan uquv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi.

**Xaykaltaroshlik** xam xuddi rangtasvir kabi xayotiy vokea va xodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi xamda materiallar yordamida ifodalaydi, xaykaltaroshlikda tosh, metall, gips, yogoch, vosk (mum), sim kabi materillar keng kullaniladi. Xaykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va uyish, quyish orqali bajariladi.

Xaykaltaroshlikda ma'lum mikdorda rangdan xam foydalaniladi. Sunggi yillarda asarlari mumii (vosk)dan xaykallar ishlash texnikasi kullanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan keng foydalanilmokda.

Xaykaltaroshlar uz faoliyatlarida ish kuroli sifatida kuyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgox, boga, bota, stek, stirkul, iskana va boshkalar. Iskanalarning tugri burchakli, uchburchakli, trapestiya burchakli, chuqur shakl beruvchi yoysimon turlari buladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metalldan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak, trapestiya shaklidagi sidirgichlar kullaniladi. Shuni xam qayd qilish lozimki, xaykaltaroshlikda qullaniladigan iskanalar turli ulchovda, tuzilishda va shaklda buladi. Dekorativ xaykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagi metall, marmar, yogoch, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular xam dekorativ, xam realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday xaykallar kitob jovonlari, yozuv stollarini bezatadi.

**Grafika.** «Grafika» - lotincha so'z bo'lib, «yozaman, chizaman» degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. grafikaning turlaridan biri gravyuradir. «Gravyura» franstuzcha suzbulib, «kesish» ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar kattik materiallarga chizish va kesish orkali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yogoch, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan kogozga kup tirajda kuchiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yogochdagisini ksilograviya, lenoliumdagisini esa litografiya deb yuritiladi. Xususan, estamp, kitob illyustrastiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (xajviy rasmlar) etiketka va urama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yul va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanadi, XV-XVII asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzaxxib, Muxammad Murod Samarqandiy, Sulton Muxammad, qosim Ali, Abdullo kabilar shuxrat qozongan bulsalar, XX asrda Uzbekistonda I.Ikromov, V.Kedrin, O.Osheyko, K.Basharov, T.Muxammedov, I.Kriakidilar sermaxsul ijod qildilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu – uning katta ulchamda bulmasligi va buyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun xam grafika asaralarida faqat chizik yoki tuk rangli tasvir ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar xam rangli bo'ladi. Ayrim grafika asarlari katta o'lchamda va ko'p nusxada tayyorlanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu plakatlardir. Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu – illyustrastiyalardir. Kadim-kadimdan tasviriy san'at kitob bezagi bilan chambarchas boglangan holda rivoj topgan. Urta asrlarda Sharq va g'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dastgoxlari ixtiro qilingandan sung illyustrastiyalar kitoblarda yanada katta urin egallay boshladi . Rassom bir adabiy asarga illyustrastiya ishlashga kirishidan avval, mazkur asarni yaxshilab urganib chikishi bilan bir qatorda, asardagi vokea sodir bulayotgan davrga doir materiallarni xam tulashi, usha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo'ladi.

Karikatura xam grafikaning bir turi xisoblanadi. Unda xayotdagi ayrim salbiy xodisa va kurinishlar, shaxslar xajviy yoki xazil tarzda rasmlar orkali tankidiy tasvirlanadi.

Grafikaning reklama, afisha, etiketka, o'rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi xam shriftlar bilan bogliq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.

## **II BOB.**

### **2.1. Tasviriy san'at darsida o'quvchilarni rasm chizishga o'rgatish va tarbiyalash**

Darsda chizilgan rasmlarni tez-tez taxlil qilib turish, birinchidan, bolalarning badiiy didini o'stiradi, ikkinchidan, ularning aktivligini oshiradi, uchinchidan, rasmlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. O'qituvchilarning badiiy didini ustirish va tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tashkil etilayotgan rasmlar ko'rigi ham boshlangich sinf o'qituvchilarning shu soxada qo'lga kiritgan yutuqlaridan hisoblanadi.

Dars jarayonida bolalar rasmlarini tahlil qilishning o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda ahamiyati kattadir. Tahlil vaqtida bolalarga ko'rsatilayotgan rasmlar yuzasidan savollar beriladi. Masalan: «Mana bu rasm chiroylimi?», «bu rasm sizga yoqadimi?», «Nega yoqadi yoki yoqmaydi?», «Bu rasmning qanday yutuk va kamchiliklari bor?» va boshqalar .

Beriladigan savollar, birinchidan, o'tilgan materiallarni mustahkamlashga, mavjud xatolarning bartaraf etilishiga yordam beradi, ikkinchidan, bolalardan badiiy asarlar haqida mustakil fikr yuritishlariga imkon yaratadi. Shunday imkoniyatlar borligiga qaramay, ta'lim va tarbiyaning bunday metodlaridan hamma o'qituvchilar ham etarlicha foydalanmayotirlar

Ko'pchilik o'qituvchilarimiz estetik tarbiyani berishni bir yoqlama olib boradilar. Ularning ba'zilar chiziladigan rasimga ko'proq e'tibor berib, o'quvchilarning ish joyi uquv qurollariga etarli e'tibor bermaydilar. Boshqa o'qituvchi esa uz e'tiborini asosan sinf va bolalarning tozaligiga qaratadi. Xolbuki, tasviriy san'at darslarida kichik maktab yoshidagi bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olmay, umuman tasviriy san'at darsining barcha elementlariga rioya qilmay turib, tulaqonli amalga oshirib bulmaydi.

Ko'pchilik maktablarda kuzatiladigan darslar shularni kursatadiki, o'qituvchilar ko'pchilik o'quvchilarga mavzu asosida chizgan rasmlari uchun «4» va «5» baxo quyganlar. Xaqiqatda esa bu rasmlar qoniqarsiz ishlangan rasmlardir.



Rasmlarni baholashda o'quvchilarning uzlarini jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Bunday hollarda bolalar o'rtoqlarini ko'ribgina qolmay, o'z didlarini ham o'stirishadi.

Bunda o'qituvchi bolalarni o'zlarining rasmlaridagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra bilishga o'rgatadi. Bolalar uzlariga ob'ektiv talabalar qo'ya olishni urganadilar.

O'quvchilarda badiiy ijodiy qobiliyatni ustirishda mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlari ayniqsa qo'l keladi. Bunday mashg'ulotlar uz mazmuniga ko'ra asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ustirishga qaratilgan. Biroq maktab tajribasida mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarning bunday vazifalariga e'tibor berilmayapti. ko'pchilik o'qituvchilarimiz mashg'ulotlarni rasm namunalaridan kuchirish asosida olib bormoqdalar. O'quvchilar mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida o'qituvchining doskada yoki qogozda chizib bergan rasmlaridan kuchirish bilan chegaralanib qolmoqdalar. Bular boshlangich sinf o'qituvchilari uchun estetik tarbiyaga oid qo'llanmalar, darsliklarning etarli emasligi, respublika gazeta va jurnallarida ana shu masalaga oid maqolalarning kam yoritilganligi bilan izohlanadi, albatta.

Xullas, mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlari o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega

Mashg'ulotning bu turlarida o'quvchilar rasmni naturadan emas xayoldan va tasavvurdan ishlaydilar. Xayoldan va tasavvurdan ishlanadigan rasm narsaning o'ziga qarab rasm ishlashga qaraganda ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. Bu mas'uliyat dars uchun zarur bo'lgan hamma adabiyotlarni o'qish, adabiy asarni va unga tegishli bo'lgan ob'ektlarni yaxshi o'rganish, shuningdek, dars rejasini ishlab chikish va bolarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar hajmini aniq belgilab olishdan iboratdir. Shuniing, tematik rasm chizdirillayotganda bolalarni rasm tasvirlanishi kerak bo'lgan ob'ekt bilan tanishtirish, undagi ba'zi bir narsalarning xomaki rasmini ishlatish lozim bo'ladi.

Adabiy asarlarga illyustratsiya chizish o'quvchilarning eng qiziqarli mashg'ulotlari bo'lib, u ham murakkab kompozitsiyani tasvirlashga aloqador bo'lgan

ma'lum qiyinchiliklar bilan bogliqdir. Bolalar illyustrativ rasm ustida ishlar ekanlar, ertak, hikoya, masaldagi qahramonlar obrazlarini uz rasmlarida tasvirlashga harakat qiladilar. Adabiy asarlardan illyurastiya chizish o'quvchilarning eng qiziqarli mashgulotlari bo'lib, u ham murakkb kompozistiyani tasvirlashga alohida bo'lgan ma'lum qiyinchiliklar bilan bogliqdir. Bolalar illyustrativ rasm ustida ishlar ekanlar, ertak hikoya, masaldagi qahramonlar obrazlarini o'z rasmlarida tasvirlashga harakat qiladilar. Adabiy asarlardagi qahramonlarda bo'lgan intilish kupincha turli xil qiyinchiliklarga olib keladi. Bu qiyinnchiliklar u yoki bu voqea, ob'ekt, narsalar tasvirini yaxshi tasavvur qila olmaslik, ba'zi bir murakkab shakldagi ob'ekt va narsalarning tuzilishi va shaklini tasvirlash malakalarining etishmasligidan iboratdir.

Zamonaviy mavzularda yoki xalq dostonlari, ertaklariga rasm chizish uchun avvalo, bolalar shu mavzuga oid odam, hayvon, turli gullar rasmlari va ba'zi bir narsalarning uziga karab rasmini chizadilar. Turli xalk ertaklari, masallar va boshka shu kabi adabiy asarlarga illyustrastiya ishlash mashgulotlarida o'quvchilarga asardagi voqea sodir bo'layotgan mamlakat yoki davrning madaniyati va turmushining uziga xos xususiyatlari, kiyim-kechaklari, me'morchiligi , ularning xarakterli tomonlari xakida so'zlab berish va ko'rsatish kerak bo'ladi.

Tevarak-atrofdan olingan mavzularga rasm chizishda o'quvchilar yil fasllari, bayramlar, o'yinlar, maktab bog'idagi ishlar bilan bogliq ko'rinish va voqealarni tasvirleydilar. Chunki tevarak atrofni tasvirlash o'z xarakteri bilan xayoldan rasm chizish hisoblanadi, tabiatni va u bilan bog'lik bo'lgan voqealarni maqsadga muvofiq kuzatishga asoslanadi.

Tasviriy san'at mashgulotlarining muvaffakiyatini o'qituvchining syujetli rasmga bolalarni qanchalik qiziqтира olishiga, ularning ijodiy tafakkurini qanchalik aktivlashtira olishiga nihoyatda bogliqdir. Ana shu maqsadda o'qituvchi mavzuga oid she'rlardan, surat reprodukstiyalaridan, kitoblardagi illyustrastiyalardan, bolalar ishlagan rasmlardan foydalanib suhbat o'tkazadi. Shuningdek, bolalar tomonidan chizilishi lozim bulgan ob'ektning o'ziga qarab ishning muvaffakiyatini ta'minlaydi.

Bunday kuzatishlar tabiatga qilingan sayoxatlar yoki bolalarni qisqa vaqtga ko'chaga olib chiqish jarayonida amalga oshiriladi.

Sayohat paytida o'tkazilgan suhbatda o'qituvchi narsalarning tuzilishi yoki predmetlarning konstrukstiyasi, ularning rangi, fazoviy xolatlari haqida to'xtaladi. Mashg'ulotlarda bolalarga narsalarning, fazovi xolatlarining mohiyatini tugri tasvirlashni va tasvirlash vositalarini tushuntirish, rassomlar asarlarning reprodukstiyalarni ko'rsatish nihoyatda foydalidir. Masalan, bolalarga chizuvchiga nisbatan turli xil uzoqlikda joylashgan narsalarning asosini kogos betida qanday joylashgantirish lozimligini tushuntirish uchun V.I.Levitanning «Oltin kuz» suratini ko'rsatish mumkin. Bu suratda yaqinda joylashgan daraxtlarning asosi uzoqda joylashagn daraxtlarning asosiga qaraganda pastroqda tasvirlangan. Shuningdek., bu surat taxlili rasmda bir perdmtni ikkinchisi tusib qolishi xodisasini yaqqol ko'rsatish imkonini beradi. Bu xodisalar A.K.Savrasovining «Kora kargalar uchib kelishdi», B.Boboevning «Fargona syuitasi» surati va boshka bir qator suratlarda yaqqol tashlanadi. Odam rasmini chizishda o'qituvchi bolalarga odam shakli xakida elementar ma'lumotlar berishi kerak buladi. Buni esa sinfda o'qituvchidan natura shaklida foydalanib kursatish maqsadga muvofiqdir.

Odam shaklining taxlili orqali bolalar odam kallasi uning umumiy balandligining oltidan bir ulushiga tengligi, oyok va tanasi (kallasi bilan birgalikda ) o'zaro bir-birlariga taxminan teng ekanligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shuningdek, bolalarga odamlar tasvirlangan san'at asarlarning reprodukstiyalari, haykallarning fotolari harakatdagi odam tasvirlarini ko'rsatish foydalidir.

O'quvchilarni illyustrastiya ishlashga tayyorlaydigan vositalardan biri o'qituvchi tomonidan turli-tuman ko'rgazmali materiallar-ertak mazmuni yoki undagi obraz va ob'ektlar bilan bogliq bo'lgan ranglar, rangli illyustrastiyalarni, hayvon va qushlarni tasvirlovchi tulumlar va o'yinchoklar, odam va hayvonlarni tasvirlovchi rasmlarni ko'rsatishdan iboratdir. Bunday ko'rgazmali materiallar adabiy asar mazmunini taxlil kilish jarayoni namoyish etiladi. Biroq, kurgazmali materiallar o'quvchilar ijodiy tashabbusini cheklab qo'ymasligi lozim. Shuning uchun kursatilgan rasm va illyustrastiyalar o'iqtuvchining tushuntirishidan so'ng

darxol doskadan olib, yashirib qo'yilishi lozim buladi. Odam va xayvon, daraxt kurinishlari tasvirlangan ko'rgazmalar esa yordamchi material sifatida sinf doskasida qolishi mumkin. Darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish uchun u yoki bu adabiy asarga illyustratsiya ishlash mashg'ulotlarini mazkur asarni o'qish dasrlarida urganilganidan sung utkazish maqsadga muvofiqdir. Darslarida o'qituvchini tasviriy san'at darsida ertakni o'qish, uning mazmunini tushuntirish, obraz va ob'ektlarga xarakteristika berish kabi ishlardan xalos etadi. Ma'lumki, ertak, masallarda hayvonlar odamlarga o'xshatib tasvirlanadi: ular uzaro gaplashadilar, o'ynaydilar, odamlarga xos turli xarakatlarni bajaradilar. Ertaklarda qush va hayvonlar odamlarning holatlarida ular kiyadigan kiyimlarda tasvirlanadi. Bularning bari illyustrativ rasm chizish metodikasiga ijobiy ta'sir kursatadi.

### **NATYURMORTNING TUSLI TASVIRLANISHI (GRIZAYL)**

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining datslabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib, qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...». Demak rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialliligi, uning hajmi, tus munosabatlarini ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Qalam-tasvirning bunday sifatlariga har bir narsadagi (shu'la, yorug'lik, yarim soya, soya va h.k.) yorug'-soya gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang

jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq, boshqalari esa ochroq ko'rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq «og'ir» (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog'oz rulon va h.k.) ko'rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog'da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsaning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng yorug' joyga qaraganda to'qroq bo'lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarning kamayishiga erishish zarur. Eng to'q narsalar yoki uning soyasi bu – qora baxmalda va ko'mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq, lekin juda ham to'q qora tusda ishlash kerak emas. Hattoki, qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo'yoqni bor kuchidan foydalanish noto'g'ri, aks holda qog'ozda yoki matoda go'yo qora teshik paydo bo'ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo'yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo'q, chunki u oq bo'yoqqa nisbatan ancha to'qroq bo'ladi.



I

II



III. Grizayl usulida ishlashning bosqishli natyurmorti.

Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obyektlarning yorug‘-soya munosabatlari: fonning och-to‘qligi, narsalarning sirtidagi och-to‘qligiga va ularning o‘zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo, qo‘yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiy munosabatlarni noto‘g‘ri olsak, qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug‘-soya hamda tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko‘rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug‘likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo‘yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug‘likni esa ularga nisbatan quyuc bo‘yoqda, ancha to‘qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo‘yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo‘yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo‘yoq surtmalarini shakl yo‘nalishi bo‘yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo‘lgan narsaga turli tasodifiy yo‘nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko‘rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo‘yicha, balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko‘rinib turgan tashqi ko‘rinishi o‘zining ko‘lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug‘lik kuchi bo‘yicha fonga nisbatan yaqinroq bo‘lishi mumkin. Shu narsaning o‘ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo‘shilib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini yorug‘-soya bilan ham puxta ishlash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug‘likdan soyaga bora turib) yuzasining har bir millimetri atsa-sekin to‘qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to‘q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishning o‘ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalarning yorug‘-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish izchilligining xususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib, o‘zining ma’lum tusiga ega bo‘ladi. Bunday narsalarning hajmi hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug‘likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo‘ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo‘ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo‘laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko‘rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo‘qolib, xiralasha boradi. Uzoqdagi obyektlar siluetli va tekis (yassi) bo‘lib ko‘rinadi. Old ko‘rinishdagi buyumlarning yorug‘-soya qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o‘qiladi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so‘ng, ularni umumlashtirishga o‘tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo‘laklarni, ularning yorug‘-soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug‘ va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhining yaxlitligini saqlash – haqqoniy tasvirlashning asosiy sharti hisoblanadi.



## **2.2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishning roli**

Didaktik ilmiylik prinsipiga amal qilish tasviriy san'at, xususan, mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida xam muxim ahamiyatga ega. Ilmiylik prinsipi deganda, o'qituvchi tomonidan beriladigan ma'lumotlarning bolalarda hosil qilinadigan malaka va ko'nikmalarning ilmiy jihatdan isbotlanishi tushuniladi. Tasviriy san'at darsidagi ilmiy prinsipi esa dars jarayonida chiziqli va havo perspektivasi, optika, yorug'-soya, kompozitsiya, rangshunoslik qonunlarining o'zlashtirilishini nazarda tutadi. O'qituvchi har bir darsda mazkur prinsipga rioya qilgan holda bolalarga berilayotgan ma'lumotlarning ishonarli ekanligi, nazariy jihatdan isbotlangan va amaliy jihatdan tekshirib kurilgan bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilishi lozim.

Tasviriy san'atdagi terminlarning aniqligi ham ilmiylik prinsipining asosiy talabalaridan biri hisoblanadi.

Ko'rgazmalilik prinsipi narsa va xodisalarning mohiyatini, ularning xarakterli xususiyatlarini va qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Ko'rgazmalilik narsa va xodisalarni idrok etishda bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi. U ob'ektni bolalarga ko'rsatish imkoni bulmagan taqdirda ham ko'z xotirasi orqali ularning obrazlarini xayolda qayta tiklashga yordam beradi.

Didaktika fani ko'rgazmali qurollarga ma'lum talablarni quyadi. Ular ilmiy jihatdan nuqsonsiz, programma talablariga mos bo'lishi, borliqni aniq aks ettirishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga tugri kelishi, gigiena va estetik talablarga javob bera olishi kerak. Ayni paytda kurgazmalilik o'qituvchining birdan-bir maqsadi bo'lib qolmasligi lozim.

Rasm chizish mashg'ulotlarida qo'llaniladigan kurgazmali qurollar turli xil bo'lishi mumkin: o'rganish maqsadida chizish uchun quyiladigan narsalarning tuzilishini ko'rsatuvchi, perspektiva, yorug'-soya, ranglar haqida ma'lumot beruvchi modellar; sxematik rasmlar va jadvallar; surat, rasm, illyustratsiya, reproduksiyalar.

Kurgazmali qurollar o'quvchilarda fazoviy tafakkurni, tasavvurni ko'z xotirasining rivojlanishiga yordam beribgina qolmay, tarbiyaning tarkibiy qismlarini, xususan, estetik tarbiyani amalga oshirishga aktiv ta'sir kursatadi. Muntazamlik va ketma-ketlik prinsipi avvallari idrok etilgan narsalarni qayta tiklash, uni aniqlashtirish va tuldirishni nazarda tutadi.

Mavzu asosida rasm chizish jarayonida ketma-ketlik o'quvchilar tomonidan tabiatni kuzatish, tasviriy san'at asarlari reproduksiyalarini o'rganish, syujetni tasvirlash, sungra rang berish kabi tartibda amalga oshiriladi. Bilim, malaka va kunikmalarni muntazam va ketma-ket uzlashtirish prinsipi ukuvchidan chiziladigan narsalarni va kurgazmali kurollarni jiddiy tanlashni, utilgan mavzularni yangisi bilan mantikan boglashni talab etadi. Shuningdek, u nazariy materiallar bilan amaliyotning boglikligini, nazariyani amaliyotda tugri kullashni takozo etadi. Ongli, aktiv va mutakil ishlar doimo ukuv materiallarini yaxshi uzlashtirish, uni puxta mustaxkamlash imkonini beradi, olingan bilimlarni kengaytirish va chukurlashtirishning asosi bulib xizmat kiladi.

Ish aktiv tashkil etilgan materialni uzlashtirish yaxshilanadi. Bunda ukituvchiga kuyidagi talablar kuyiladi: 1) ukuvchilar aktivligini kuyidagn vazifani mustakil echishga yunaltirish; 2) ukituvchining bolalar aktivligini savollar va rasm kompozistiyasining yangi variantlarini tuzib kursatish orkali kuzgotishi. Ukuvchilarni xox maktabda, xox uyda bulsin mustakil ishlashga urgatib borish zarur. Ish jarayonida ukituvchini bolalar aktivligini va ongliligini oshirishga xarakat kilar ekan, ularga individual munosabatda bulishni yodidan chikarmasligi kerak. Bunda u ukuvchini ragbatlantirishi, unda uz kuchiga ishonch xosil kildirishi, extiyotkorlik bilan tankid kilishi lozim. Ukuvchilar uchun ukituvchining uylashi yoki chizishi yaramaydi, ular uz xatolarini uzlari tuzatishga urgansinlar. Agar qiyinchilik tugtlib qolsa, tegishli savollar, rasm ishlash yo'l ko'rsatish bilan yordam bersa bo'ladi.

O'qitishning bolalar kuchiga yarasha bo'lishi prinsipi o'qituvchidan xar xil sinfga oid o'quv materialining oddiy yoki murakkab darajasini aniq belgilashni taqozo etadi. O'quvchilarga shunday vazafalar berish kerakki, ular avvalo, bollalar

kuchiga yarasha bo'lsin, ular ishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelsinlar va bu qiyinchiliklarni engsinlar. Shundagina, bolalar berilgan bilim va malakalarni o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zlari uchun kichik bo'lsa-da, yangilik yaratadilar, uz ijodlaridan zavqlanadilar. Mazkur prinsip o'qituvchidan bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishni, ularning yosh va individual xususiyatlarni xisobga olishni talab qiladi.

Sayohatlar turli xil predmet va xodisalarni, ob'ektlarni real sharoitda ko'z tatish va o'rganish uchun xizmat qiladi. Sayohat jarayonida didaktikaning ko'rgazmalilik, nazariya bilan amaliyotni bog'lab olib borish kabi prinsiplari amalga oshiriladi. Sayohat jarayonida ukuvchilarning bilish faoliyatlari, vatanparvarlik kabi xususiyatlari shakllanadi va rivojlanadi, shaxsni estetik tarbiyalash kabi ishlar amalga oshadi.

Sayohat, odatda, u yoki bu predmetning ma'lum bulimlarini o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Ular tabiat, ishlab chiqarish korxonalari, muzey, tarixiy yodgorliklarga bo'lishi mumkin. Sayohatni muvaffaqiyatli utkazish kup jixatdan o'qituvchining tayyorgarligiga bogliq bo'ladi. Tayyorgarlik bosqichi o'z ichiga quyidagi asosiy momentlarni oladi: ob'ektni tanlash va uning oldindan o'qituvchi tomonidan kuzatilishi; sayohat jarayonida o'qituvchi tayanishi lozim bo'lgan bolalardagi bilim va tushunchalarni bilib olish; sayohat rejasini belgilash va uning maqsadini aniqlash.

O'qituvchi sayohat ob'ektni tanlashda bolalarning tasviriy san'at va boshqa fanlar xakidagi bilimlari xajmini, yoshini xisobga olishi kerak. Sayohat uchun maktab xovlisi, sport maydonchasi, ko'cha, bog, paxta maydoni paxta qabul punkti, katta shaxarlarda esa chorraxa, fabrika, zavod, ustaxona, stirk va xokazolarni tanlash mumkin.

Ekskursiya jarayonida tabiatni kuzatish bilan bir katorda ob'ektdagi narsalarning shakli, rangi, fazoviy xolati, ulchovlari xakida keng fikr yuritilishi, savol-javoblar utkazilishi bolalardagi ijodiy qobiliyatlarning usishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar borliq, tevarak-atrofnı kanchalik tushungan holda idrok etsalar, ularda estetik xis-tuygular shunchalik barqaror va mazmunli buladi. Ular asta-sekin boshlangich holda bo'lsa-da, estetik mulohaza yuritish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydilar. Bolalarda estetik xis-tuyguning usishi ularda predmet va xodisalarning xususiyatlarini estetik baxolash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalar nutqida «xushbichim», «nafis», «engil», «quvonchli», «bayramdagidek» kabi chiroyli suzlarning paydo bo'la borishi ularda borliqni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganidan dalolat beradi.

Ekskursiya jarayonida o'quvchilarning tabiatga, jonajon ulkaga bo'lgan muxabbatini oshirishni xam unutmash kerak. Mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida o'quvchilar asosan manzara rasmini chizadilar. Shu maqsadda «Baxor», «Kuz», «Kish», «Yoz», «Baxorgi ishlar», «o'qituvchilarning maktab bogidagi kuzgi ishlari», «Xosilni yigib olib» kabi temalarga rasm chizishda o'quvchilarga fasllarni tasvirlovchi suratlar kursatilsa, ertaklarga rasm chizdirish esa rassomlarning «Bugirsok», «Buri bilan tulki», «Susambil», «Maktanchok kuyon» singari ertaklarga ishlagan illyustrastiyalaridan foydalaniladi. . Shuning uchun rasm chizishga kirishishdan avval o'qituvchi bolalarga manzara bilan bogliq bo'lgan suratlarni kursatishi, ularni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishi maqsadga muvofiqdir. Tahlildan maqsad o'quvchilarni zarur vaqtda rasmdagi narsalarni (daraxt turlari, shox-shabba, gullar, osmon va boshkalar)

Mavzu asosida rasm chizish darslarida bolalar manzarani tasvirlayotib, ko'pincha qo'pol xatolarga yul qo'yadilar. Bu xatolar ko'proq daraxt, uy, daryo va boshqalar tasvirida ko'rinadi. Masalan, bolalar daraxt tanasini uchburchak shaklida, shoxlarini esa ikki tomonga taralgan chizik shaklida tasvirlaydilar. Natijada ishlagan suratlari uzlariga xam yoqmaydi va ularning tasviriy faoliyatiga qiziqishlari susaya boshlaydi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari haqida keyinroq tuxtaladi.

Mashg'ulotlar uchun san'at asarlari reproduktsiyalarini to'plash, tanlash va ularni sistemaga solishning roli katta.

Olib borilgan kuzatishlar shuni kursatadiki, ba'zi bolalar suratlarni ko'zdan kechirish jarayonida uz e'tiborlarini kuprok asar mazmuniga karatadilar, uning

estetik qiymatini esa tez paykay olmaydilar. Shuni xisobga olib, bolalarni estetik idrok etish qobiliyatini ustiradigan san'at asarlaridan unumli foydalanish lozim. Negaki manzara janridagi asarlar o'zida kishini o'rab olgan borliqning go'zalligini aks ettiradi va uning xis-tuygulariga ta'sir qiladi. Shunday ekan, ukituvchilar oldiga ukuvchilarning estetik idrokini, zavkini, ulardagi kuzatuvchanlikni shakllantirish vazifasi quyiladi.




O'quvchilarga suratlarni kursatishdan maqsad ularni faqat ba'zi bir tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirishgina emas, balki suratlar haqiqiy borliqni aks ettirishi, bu asarlarda xayotiy mazmun borligi va ular juda rang-barang ekanligi haqida tushuncha berishdir.

Shuning uchun xam o'quvchilarni tasviriy san'at asarlarini estetik idrok etishga o'rgatishda, ularning badiiy didini ustirishda san'at asarlari reproduksiyalarini kursatish va tushuntirish, ular bilan birgalikda taxlil qilishga aloxida e'tibor bermok darkor. Tasviriy san'at asarlari nusxalarini urganish bolalarning san'atning bu turiga bulgan kizikishlarini oshirish imkonini beradi, ular san'atni ma'lum darajada tushunadigan, tasviriy san'at komponentlari xisoblangan kompozistiya, perspektiva, rang haqida elementar tushunchaga ega bo'ladilar.

***Bir-biriga qarama-qarshi ranglardagi buyumlardan tuzilgan  
natyurmortning rangli etudi***

Eng avvalo, natyurmort uchun kerakli narsalar tanlab olinadi. Ular havorang yoki yashil sirlangan (emalli) katsrulka, ikki-uch dona sabzi, sariq yoki jigar rangli sopol piyola, ikkita sholg'om, bir nechta kartoshka hamda ikki-uch dona yorqin qizil, zarg'aldoq va och pushti rangli matolardan iborat bo'lishi mumkin. Birinchi qo'yilma uchun, turli rangdagi va hajmdagi narsalar tanlab olinadi.

Dastlabki natyurmortga qo'yilayotgan narsalar soni 2 yoki 3 donadan oshmasligi kerak. Qo'yilma chiroyli va qiziqarli bo'lishi uchun, tanlab olingan buyumlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda turganda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma'qul bo'lmasa, bu ishni yana bir necha bor takrorlash va kompozitsiyada yaxlitlik paydo bo'lgunga qadar davom ettirish zarur.



Bosqichli o'quv natyurmorti.

Sopol ko‘za va sabzavotlardan tuzilgan natyurmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo‘yilmadagi buyumlarning kattaroqlarini orqada, maydalarini esa oldinroqda joylashtirib, biri ikkinchisini ozroq berkitib turadigan holatda qo‘yamiz. Ammo barcha narsalarning tubi qisman bo‘lsa-da, ko‘rinib turgani ma’qul. Shunda ularning o‘zaro joylashuvini tasvirlash ancha oson bo‘ladi.

Natyurmort murakkab va ko‘p buyumli bo‘lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi qatorda joylashtiriladi. U shakli, rang va tusi bilan ajralib ko‘rinib turishi, kompozitsiyaning markazini tashkil qilishi zarur.

Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq ifodali tasvirlash uchun uning birinchi oldingi qismiga uncha katta bo‘lmagan, ammo yorqin narsa qo‘yiladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvlarini to‘laroq ochib berish uchun, ularga tushayotgan yorug‘lik nurlari old tomondan va yonidan yo‘nalgan bo‘lishi kerak. Shunda natyurmortdagi har bir narsaning hajmdor ekanligi aniq ko‘rinib turadi.

Natyurmortdagi narsalarning farqlari aniq ko‘rinishi uchun mato tanlashga alohida e’tibor berish zarur. Shuni ham hisobga olish kerakki, oq fonda qoramtir narsalar, to‘q fonda esa aksincha, oq narsalar aniq ko‘rinadi.

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar kiritiladi. Ular devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo‘yilsa, pastga erkin osilib tushib turadi va tabiiy shakldagi burmalar hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog‘liq ko‘rinishda bo‘ladi. Lekin juda mayda burmalarni tasvirlash ancha qiyin, shu sababli datslabki natyurmortda sidirg‘a, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Puxta qo‘yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo‘lmaydi, uni old yoki yon tomonidan kuzatilganda mazmunli yagona guruh bo‘lib, ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Natyurmort qo‘yilmasini maqsadga muvofiq joylashtirib olgandan so‘ng, metodik izchillikda tasvirlanadi.

Qo‘yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi qarash nuqtasini topib, ufq chizig‘ini unga muvofiq tarzda belgilab olish muhim ish bo‘lib, tasvirning umumiy

kompozitsiyasi ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida chiroyli joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab etadi. Shuning uchun asosiy ishni boshlashdan oldin bir nechta kichik o‘lchamda xomaki rasm chizmalavhalar bajarib ko‘riladi. Ulardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab olib, shu asosda katta tasvir ishlashga kirishiladi.

Qog‘oz yuzasida natyurmortning umumiy o‘lcham mutanosibliklari aniqlangach, uning umumiy kengligi va balandligi yengil chiziqlar bilan belgilanadi. Har bir narsaning umumiy shakli, alohida qismlarning nisbiy o‘lchamlari topiladi. Buyumlarning asoslari orasidagi masofalar ham aniqlanib, ohistalik bilan chiziladi. Bu ishlar qalamni qog‘oz sathida tez-tez yurgizib, ishlanayotgan tasvirni qo‘yilma bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi buyumning o‘ziga xos shakli, katta-kichikligi va turgan o‘rni aniq topilgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatiladi. Shakllardagi mavjud perspektiv qisqarishlar ham aks ettiriladi.

Buyum tasvirlarini surat tekisligida joylashtirish vaqtida ularning asoslarini, ya‘ni ko‘rinmas qismlarini ham to‘liq chizish kerak. Shunday qilinganda ba‘zi narsalarning «muallaq» holatda bo‘lishi yoki bir narsaning ikkinchisiga «o‘yib» kirgandek bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Natyurmortni qalamda mukammal ishlab bo‘lgach, rang berishga o‘tiladi. Uning rangtasvirini ishlashda qo‘yilgan narsalarning yorug‘-soya nisbatlarini, ayni paytda rang nisbatlarini ham ochib ko‘rsatish muhimdir.

Akvarel bo‘yoqlarini ishlatish usullari bir necha xil bo‘lib, natyurmort rangtasvirini bajarishda ularning har birini almashtirib qo‘llash tavsiya etiladi. Akvarel rangtasvirida keng tarqalgan ish uslublaridan biri lessirovka-bo‘yoq qatlamlarini ustma-ust qo‘yishdir. Bo‘yoqning suyuq eritmasini tayyorlab olib, qog‘ozga qatlam tarzida surtilganda tagidagi qog‘oz tovlanib turadi. Bir sidra qo‘yilgan bo‘yoq qatlami qurigach, ustidan boshqasi surtiladi, ostki qatlamning ko‘rinib turishi tufayli yangi rang tusi hosil bo‘ladi. Qatlamlar soni ko‘paygan sari rang tobora boyib, ta’sirchanligi kuchayib boradi.



Akvarel bo‘yoqlarining alohida xususiyatlaridan biri ularning ko‘p vaqt namlikni saqlashidir. Bundan unumli foydalanib, bir xil rang qo‘yilgandan keyin u hali qurimasidan ustiga ikkinchisi qo‘yilsa, asta-sekin bir-biriga qo‘shilib ketishi natijasida mayin bog‘lanishlarga erishish mumkin. Lekin bir rangning boshqasidan farqini aniq ko‘rsatish kerak bo‘lganda bo‘yoq qatlamining butunlay qurishiga ahamiyat berish lozim.

Akvarel bo‘yoq bilan ishlashni boshlashdan avval qog‘oz mo‘yqalam bilan namlab olinadi. Keyin tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo‘yoq eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Soyalarni birdan qoraytirib yubormasdan, asta-sekinlik bilan bir qatlam qurigach, ikkinchisini surtish kerak. Oxirgi bosqichda ingichka mo‘yqalam bilan bo‘laklarni ishlab chiqish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni bir oz to‘qlashtirib, natyurmortning yaxlit va hamohang ko‘rinishiga erishish kerak.

### **2.3. Natyurmort ishlash jarayonida akvarel bo'yoqlari imkoniyatlaridan foydalanish**

Akvarel bilan ishlash jarayoni talabalar malakalarining rivojlanishida natyurmort mavzusi muhim ahamiyat kasb etadi. Natyurmortda bo'lgan shakl formasini, rangini osongina drok qilish va qog'ozga tasvirlash mumkin. Natyurmort ishlash jarayonida rasm chizish hamda akvarelda tasvirlashning asosiy elementlarini puxta o'rganish imkoniyatlari ochildi.

Natyurmort – fransuzcha so'z bo'lib, “jonsiz tabiat” – degan ma'noni bildiradi. Natyurmort ishlashning dastlabki bosqichlarida uncha murakkab bo'lmagan buyumlar tasvirini chizdirish tavsiya etiladi.

Narsaning asliga qarab rasm chizish va uni akvarel bo'yog'ida tasvirlash ranglar boyligi, o'zaro bog'liqligi hamda rang nisbatlarining roli katta. Natyurmort ishlashning dastlabki bosqichlarida bir – birlaridan rang jihatdan keskin farq qiladigan buyumlarni tanlash tavsiya etiladi. Bu esa bo'yoqlarning bir-birlaridan farqlarini sezishni juda engillashtiradi.

Natyurmort ishlashda asosiy diqqat e'tiborni buyumdagi eng yorug' va to'q joylarga qaratmoq lozim. Tasviri chizilayotgan buyumlar yaxshilab tahlil qilingan va o'rganib olingandan keyingina amaliy topshiriqni bajarish tavsiya qilinadi. Natyurmort ishlash jarayoniga naturaning yoritilganlik darajasini va ularga mos rang tanlashni o'rgatish kabilar nazarda tutiladi. Naturaning yoritilganlik darajasini aniqlash tanlanganidan buyumlarning sirlari muhim rol o'ynaydi. Ishlanadigan naturada unchalik tiniq, yaltiroq bo'lmagan buyumlar tanlanadi. O'quv mashg'ulotlari uchun naturada yorug'lik yon tomondan tushishi hamda tushuvchi soya uncha katta bo'lmasligini nazardan qoldirmasligimiz shart.

Natyurmort uchun olingan buyumlarning sirlari bo'yangan yoki niakellangan bo'lsa, ularning yorug' tushayotgan tomonida yaltiroq dog'chalarni ko'ramiz. Bu yorug'lik nurining eng ko'p tushgan joyi yorug'lik shu'lasi deb ataladi. Yorug'lik shu'lasi buyumlarning shakliga bog'liq ravishda ingichka yo'l yoki nuqta ko'rinishida bo'ladi. Xira sirtlarda yorug'lik shu'lasi uncha sezilmaydi. Yorug'lik shu'lasi ko'pincha xonaning ichidagi buyumlarda hosil bo'ladi va naturaning eng sovuq ob'ektini hosil qiladi. Zero buyumlarga derazadan tushayotgan yorug'lik nurlari orqali osmonning havo rang sovuq tulari ta'sir qiladi.

### **«Kuz ne'matlari» mavzusidagi natyurmort**

Qarshimizda turli buyum va narsalardan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi: Havorang ko'za, zarg'aldoq anor, likopchada qovun bo'lagi va stoldagi och havorang hamda jigarrang matolar. Oq devor och sariq mato bilan fon vazifasini o'taydi.

Ko'za va anor rang jihatdan boshqa narsalarga nisbatan ancha yorqinroq. Boshqa narsa va buyumlar rangi ancha murakkab. Qo'yilmani joylashtirgach, chiroyli qarash nuqtasini tanlaymiz. Qo'yilmaga yon tomondan tushayotgan yorug'lik maqsadga muvofiqdir.

Dastlab al-lya prima texnikasida natyurmort eskizi 1 seansda bajariladi. Bu bosqichda asosan qo'yilmadagi katta munosabatlar — soyalar va yarimtuslar aniqlanadi.

Bu tayyorlov ishda ijodkorning g'oyasini ko'rish mumkin. Qog'oz yuzasida predmetlar aniq joylashgan, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko'rinishdagi buyumlar to'g'ri topilgan. Etudni tahlil etadigan bo'lsak, ranglar farqidagi issiq va sovuq, yorqin va xira narsalar aniq ko'rsatilgan. Zarg'aldoq rangdagi anor esa o'ziga issiq va kamto'yingan tularni bo'ysundiradi.

Ko‘zada soya, yarimsoya va yorug‘lik belgilanib, yorqin tusdagi matoning oldingi ko‘rinishda va devordagi farqi aniqlangan. Oldingi ko‘rinishdagi qovun bo‘lagi xuddi hozirgina kesib qo‘ygandek juda yaqqol tasvirlangan.




Endi esa qo‘yilmani qog‘oz yuzasida tasvirlashni belgilaymiz. Qog‘oz yuzasida tasvirlashdan avval, kichik o‘lchamdagi qog‘ozda eskiz variantini chizib, so‘ngra katta o‘lchamdagi qog‘ozda yordamchi chiziqlar orqali natyurmortni tasvirlaymiz. Bu bizning birinchi bosqich ishimiz bo‘ladi. Endi bo‘yoqlarda ishni boshlaymiz.

Nimadan boshlagan ma‘qul? Yorqin rangga ega bo‘lgan buyumlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Qo‘yilmamizda ko‘za va anor ko‘zga yaqin narsalardir. Devor va sariq matoni juda bo‘rttirib ishlansa, yaxlitlik nisbatlari buzilib, natyurmortning rang munosabatlari o‘zgarib ketadi. Ko‘za va anorni to‘liq o‘z holatidagi rangida olish mumkin.

Havo rang rangdagi ko‘za, turli tusda ko‘rinadi: yorug‘likda bir xil, yarimsoyada boshqa, soyada endi u havorang emas, balki siyohrang-havorang, ayrim bo‘laklarida yashil-jigarrangroq (shu‘la ta‘sirida) bo‘lib ko‘rinadi. Ranglar bilan ishlashda ularni qo‘yilmadagi narsalar rangidan to‘qroq berish kerak, chunki u qurigach, biroz ocharadi. Havo rang ko‘zaning ranglari yorug‘lik shu‘lalar ta‘sirida tovlanib, turli tusda ko‘rinadi. Qo‘yilmadagi anorda tushayotgan yorug‘lik ta‘sirida sovuqroq pushti rang, yarimsoya esa zarg‘aldoq, soya qismida kuchli qizg‘ish tus hukmronlik qiladi.

Likopchadagi qovun bo‘lagini bo‘yar ekanmiz, uni devor va devordagi sariq mato bilan taqqoslab ishlash to‘g‘ri bo‘ladi. O‘ylab kuzataylik-chi, likopchadagi qovun och tusdami yoki devormi? Rang jihatidan qaysi biri sovuqroq – devormi, qovunmi yoki likopchami? Qanday farqlar mavjud? Qovun bo‘lagining po‘stimi yoki qovun o‘zi rangliroqmi? Shuni unutmaslik kerakki, har daqiqa qo‘yilmani o‘zingiz tasvirlayotgan ish bilan taqqoslab, ishlashni davom ettiravering. Ma‘lum vaqt o‘tgach, o‘z ishingizni qo‘yilma yoniga qo‘yib, ularni solishtiring va kamchiligini topishga harakat qiling. Taqqoslashda avval kichik bo‘laklar rangini,

soʻngra ishga yaxlit qarab, uning umumiy tus munosabatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.



Bosqichli oʻquv natyurmorti.

Eng asosiysi ish soʻnggida barcha buyum va narsalarni umumiy tusga boʻysundirib yakunlash hisoblanadi.

## 2.4. Natyurmort mavzusiga oid dars ishlanmasi.

Endi yuqoridagi fikrlarimizga asoslangan holda natyurmort mavzusida maktabda 5-6 sinflarda bir soatlik dars o'tish uchun ishlanmasidan namunalar keltiramiz.

Dars mavzusi. Narsani o'ziga qarab rasmini chizish.

1. Tashkiliy qism 2-3 m.
2. O'tgan mavzu va uy vazifasini so'rash 5 m.
3. Yangi mavzuga zamin tayyorlash
4. Yangi mavzuni bayoni 8 m.
5. Darsni mustahkamlash 2-3 m.
6. Uyga vazifa berish.

Dars jihozi.

O'qituvchi uchun: dars ishlanmasi, ko'rgazmali qurol, doska, bo'r ... reprodukstiyalar.

O'quvchi uchun: qalam, rasm daftar, akvarel bo'yog'i, suv, mo'y qalam, palitra.

### Darsning borishi.

Tashkiliy vaqtni o'tkazgandan keyin uyga vazifani ko'rib chiqaman va bir nechtasini olib o'quvchilarga namuna sifatida ko'rsataman. Ishlarni baholab, yangi mavzuga doir bir necha savollar beraman. Tabiatda kandy gullar bor. Ularning shakli qaysi geometrik figuralarga o'xshaydi. Ularning ranglari qanday Savol-javob davomida doskaga yangi mavzuni yozaman. «Guli natyurmort».



3 m.

Taxlikka shishadan yasalgan vaza ichiga bir necha gullar solinadi va qaysi holatda qo'yishni o'quvchilardan so'rayman. Bir o'quvchini chiqarib ularni jamlashtirishni taklif etaman. Keyin o'quvchilarga uni tushuntiraman. Chizish



uchun qo'yilgan bir necha narsa yoki buyum natyurmort deb ataladi. Ularni uy ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqatlar, meva sabzavotlar, o'simliklar va gullar, turli xil narsalar. O'quv qurollari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Gulni chizish tarkibini ko'rib chiqamiz. Ukuvchilarning birinchi boskichda, ya'ni kompozition joylashtirilishi tekshiraman. Chizib bo'lgan ortiqcha chiziqlar o'chirib tashalanadi va bo'yashga o'tiladi. Yorug' soyalarni tasvirlashga



yorug'likdan soyaga o'tishda yorug'lik mavjud. Bu oraliq yarim soya deyiladi. O'quvchilarga rangshunoslik, soya yorug'liklar qonunlari, ish bosqichlari va ishlash texnikasini tushuntiraman. Endi mustaqil chizayotgan paytda partalararo yurib ular bilan individual ish olib boraman. Alohida-alohida tushuntiraman. Dars oxirida 2-3 ta yaxshi ishlarni olib birgalikda tahlil qilaman va baholayman. Ko'pchilikda bir xil o'xshash xato bo'lsa o'quvchilar diqqatini bir zumda doskaga qaratib qayta tushuntiraman.

Uyga vazifa uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmortlar chizib kelish. Mana shu tartibda maktabda o'quvchilar yoshiga mos tanlagan naturalarni qo'yib dars o'tish mumkin.

## Xulosa

Kelgusi avlodni tarbiyalashda va ta'lim berishda tasviriy san'atning ahamiyati juda katta. Chunki u insonni qalb ko'zlarini ochsa uni o'z-o'zidan go'zallikka yndaydi. Inson go'zallikni xis qilib unda tushunchalar paydo buladi. U o'zi bilmagan holda yam-yashil tabiatni sevib ardoqlaydi. Unda shunday tushuncha bosh g'oya bo'lib singaydi. Vatanni sevish, go'zallikni g'is qilish, bilimni ardoqlash, ota-onani xurmat qilish tuyg'ulari boshqalarga qaraganda kuproq.

O'quvchilar badiiy ta'lim-tarbiyasida ijobiy o'zgarishlarni vujudga keltirish uchun tabaqalashtirib o'qitishda quyidagi shartlarga rioya etish lozim:

- bolalarni yosh hususiyatlarini diqqat bilan o'rganish, ularnig hulq-atvori, badiiy qiziqishi va qobiliyatini bilish

- tasviriy faoliyatga nisbatan bolalarnig tabiiy intilishi va ijobiy munosabatini aniqlash

- bolalarning badiiy bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olgan holda, ularning mustaqil amaliy mashqlarini bajarishga etibor berish

- bolalarning badiiy tassavuri, taffakkurning rivojlanganligi, tevarak-atrofga nisbatan munosabat bildirishi, biror narsa yuzasidan o'ziga hos xukm-xulosalar chiqara olishi, mustaqil ravishda tasviriy faoliyatga doir vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini hisobga olish va h.k bo'lib

O'quvchi bu borada juda yaxshi tushunchaga ega bo'lishi, o'z fanini chuqur bilishi, psixologik-pedagogik muloqot, badiiy bilim, malakalarini puxta egallagan bo'lishi kerak. Undan o'quvchilarni tadaqalashtirib o'qitishning barcha jihatlarini anglab etish, bu borada to'g'ri hatti-harakatda bo'lish, xususan, o'quvchi metodik majmualardan foydalanishda tanlab yondashish talab etiladi.

Har tomonlama mustaqil, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish, pedagogning qadrli, mehrlil, mashaqqatli mehnati hamda ma'rifiy, madaniy saviyasiga, puxta tayyorgarlagiga, yosh avljdni o'qitish va tarbiyalashdek sharaflil ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Bu borada o'qituvchining mustaqillik



g'oyasiga bo'lgan e'tiqordining kuchli bo'lishi har qanday vaziyatda ham faol pedagogik hatti-harakat qilib, ijobiy ta'sir ko'rsata olishi zarur hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kun talablari asosida bilim, tajribaga ega bo'lib, mustaqil badiiy ijodiy mehnat qilish, badiiy ta'lim oshirish talab etiladi. Bunday ta'lim jarayonida esa o'quvchilarning mavjud qobiliyatlarini aniqlagan holda ularga o'zining kim ekanligini ko'rsatish kerak. O'quvchida biron qobiliyatning o'sganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p e'tibor va g'amhurlikni talab etadi. Ana shunday holatda o'quvchiga uni qiziqtiradigan faoliyat sohasiga doir adabiyotlarni tavsiya etish, uni o'slashtirishning eng qulay usullari bilan tanishtirish, unda o'z kuchiga ishonch uyg'otish, to'siq, va qiyinchiliklarni engishga doir irodaviy sifatlarni tarbiyalash zarur.

Men ham shu oliygohni tugatib, o'zim orzu qilgan kasb egasi bo'lganimda kelajak yosh avlod tarbiyalashda o'z hissamni qo'shishni maqsad qilib olmoqchiman. O'quvchilarga tasviriy san'at haqida tushuncha berish, ularni o'rgatishga umid qilaman. O'zimning bajarayotgan Bitiruv malakaviy ishim orqali o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlashni maqsad qilib qo'ydim.


# ILOVALAR











**“Kuz ne'matlari”**



IKROMJONOV A.  
“Mevali natyurmort” Mato, moybo`yoq





IKROMJONOV A.  
“Moviy keramika” Mato, moybo`yoq



**“Kuz ne’matlari”**



**“Kuz ne’matlari”**



**“Kuz ne'matlari”**



**“Kuz ne’matlari”**

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov."Buyukkelajak sari" T. 1998y.
2. I.A.Karimov."Barkamolavlodorzusi" T."Sharq" 1999y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gironi. T.1997y.
4. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T. 1997y.
5. Barkamolavlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent. Sharq, 1997y.
6. N.U.Abdullaev. "San'at tarixi" 2/1. T.San'at, 2001y.
7. Abdirasilov.S, Tolipov.N. "Rangtasvir". T, 2005y.
8. Azimova.B.Z. "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi". T. O'qituvchi, 1984y.
9. L.O.Barsh.Nabroski izari so'vki. M.1970y.
10. Qo'ziev.T, Egamov.A, Qanoatov.T, Nurqobilov.A."Rangtasvir". 5-9 sinflar."San'at". T, 2003y.
11. M.Nabiev. "Ragshunoslik". T. O'qituvchi, 1996y.
12. M.Nabiev, B.Azimova. "Rasmchizish gao'rgatish metodikasi". T. O'qituvchi, 1976y.
13. Egamov.H. Bo'yoqlar bilan ishlash. T. O'qituvchi, 1981y.
14. Egamov.H. "Rangtasvir". T. O'qituvchi, 2005y.
15. Hasanov.R. "Maktabdasturiy san'atni o'qitish metodikasi".T."FAN", 2004y.
16. Hasanov.R. "Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi".Fandasturi.TDPU – 2007.
17. N.N.Rostovstev. Metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole. – Moskva: Prosveshchenie, 1974.
18. Shoroxov.E.V. Osnovy kompozitsii.M: Prosveshchenie, 1976.
19. Raxim Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent. G'afur G'ulom. 2009 yil.

## Mundarija

Kirish.....	2-5 betlar
<b>I BOB.</b>	
1.1. Natyurmort tarixi.....	6-9 betlar
1.2. Rangtasvirda natyurmort va uni tasvirlash usullari.....	10-15 betlar
1.3. Rasm chizishda estetik tarbiyaning ba'zi masalalari.....	16-22 betlar
1.4. Tasviriy san'atning janrlari va turlari.....	23-31 betlar
<b>II BOB.</b>	
2.1. Tasviriy san'at darsida o'quvchilarni rasm chizishga o'rgatish va tarbiyalash.....	32-40 betlar
2.2. Tasviriy san'at mashgulotlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishning roli.....	41-49 betlar
2.3. Natyurmort ishlash jarayonida akvarel bo'yoqlari imkoniyatlaridan foydalanish.....	50-53 betlar
2.4. Natyurmort mavzusiga oid dars ishlanmasi.....	54-55 betlar
Xulosa.....	56-58 betlar
Ilovalar.....	59-70 betlar